

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
Филология факультети
Инглиз тили ва адабиёти кафедраси

«Ҳимояга рухсат этилсин»

Факультет декани _____ А.А.Ҳайдаров

« _____ » _____

4-курс талабаси Болтаева Ферангизнинг
AMERIKA REALISTIK ADABIYOTIDA ROMANTIZM
XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI
(T.Drayzerning “Amerika fojeasi ” va Jek Londonning “ Martin Iden ”
romanlari misolida) мавзусидаги
БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

5120100-Филология ва тилларни ўқитиш (инглиз тили) таълим
йуналиши

Илмий раҳбар: Н.С.Қобилова
Тақризчи: Ф.М.Ҳажиева

Бухоро – 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. XIX ASRNING OXIRI – XX ASRNING BOSHIDA AMERIKA ADABIYOTIDA REALIZM OQIMI VA UNING YIRIK NAMOYANDALARI

I.1 Amerika adabiyotida Tanqidiy realizm va uning o'ziga xos xususiyatlari...	6
I.2 Realist yozuvchi Jek Londonning hayoti va ijodiy faoliyati.....	11
I.3 Teodor Drayzer –Amerika adabiyoti yirik namoyandasi.....	16

II BOB. “ MARTIN IDEN ” VA “ AMERIKA FOJEASI ” ASARLARIDA ROMANTIZM XUSUSIYATLARI

II.1. “Martin Iden” asarining yaratilishi va bosh qahramon tasviri.....	26
II.2. “Amerika fojeasi” romani XX asr Amerika orzusining xavf-xatarlarini ochib beruvchi shoh asar	33
II.3. “ Martin Iden” va “ Amerika fojeasi ” asarlarida romantizm xususiyatlarining ifodalanishi.....	44
XULOSA.....	56
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	59

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, xorijiy tillarga e'tibor hozirgi kunda juda katta, chunki qaysi sohada bo'lmasin o'z ona tilidan tashqari boshqa chet tillarni ham puxta biluvchi mutaxassislariga ehtiyoj ortmoqda. Dunyodagi deyarli barcha sohada erishilayotgan yutuqlar ingliz tilida tahlil qilinadi. Texnika, tibbiyot, madaniyat sohasidagi loyihalar ham ingliz tilida olib boriladi. O'zbekiston iqtisodiy va siyosiy jihatdan barcha davlatlar bilan aloqa qilmoqda. Davlatimizning ilmiy, madaniy va texnik yutuqlarini jahonga tanitish uchun biz yoshlar xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini mukammal egallashimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 – yil 10 – dekabrda
“Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari
to'g'risidagi PQ - 1875 – sonli qaroriga ko'ra, chet tillarga e'tibor yanada oshdi.

Mavzuning dolzarbligi. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi shundaki, xorijiy tillarga, ayniqsa, ingliz tiliga e'tibor oshgan bir paytda, asl ingliz tilida yozilgan asarlarning mazmun – mohiyatini o'zbek kitobxonlariga yetkazib berish muhim hisoblanadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishda Amerika adabiyoti yirik asarlari “Amerika fojeasi” va “Martin Iden” asarlarida romantizm xususiyatlarining ifodalanishiga e'tibor qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy obyekti va predmeti. T.Drayzerning “Amerika fojeasi ” va Jek Londonning “ Martin Iden ” romanlarini ishimizning asosiy manbai sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad amerika realistik adabiyoti namoyondalari T.Drayzerning “Amerika fojeasi” va Jek Londonning “Martin Iden” romanlarida romantizm xususiyatlarining ifodalanishini o'rganish va tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqotimiz maqsadi oldimizga quyidagi vazifalarni qo'yishni taqazo etdi:

- Amerika adabiyotida Tanqidiy realizm va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish

- Realist yozuvchilar Teodor Drayzeri va Jek Londonning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish

- “Amerika fojeasi” va “Martin Iden” romanlarini o'qib, tahlil qilish
romani XX asr Amerika orzusining xavf-xatarlarini ochib beruvchi shoh asar

- “Martin Iden” va “Amerika fojeasi” asarlarida romantizm xususiyatlarining ifodalanishini tahlil qilish

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi. XX asr Amerika adabiyotidagi realist yozuvchilar Teodor Drayzer va Jek London ijodi talqini haqida yetarlicha ilmiy ishlar qilinganiga qaramay, bu ikki adibning asarlarida romantizm xususiyatlarining ifodalanishi alohida tahlil qilinmagan. Biz ishimizda romantizmning ilg'or hamda reaksiyon xususiyatlarini mustaqil ajratilgan holda tahlil qildik va ikkala asarlarda romantizmning ilg'or xususiyati ustunligini ochib berdik. Bu masala biz tanlagan mavzuning yangiligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu ilmiy tadqiqot davomida qo'lga kiritilgan natija va xulosalar tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti, chet el adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi kabi fanlarida informatsion manba sifatida qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, bu natija va xulosalardan yuqorida qayd etilgan natijalar bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va kurs ishlarini yozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Birinchi bobda XIX asrning oxiri – XX asrning boshida amerika adabiyotida realizm oqimi va uning yirik namoyandalari haqida fikr yuritildi.

Ikkinchi bobda esa “Martin iden” va “Amerika fojeasi ” asarlarida romantizm xususiyatlari ifodasi o'rganildi va tahlil qilindi.

Tadqiq etilgan ma'lumotlar umumlashtirilib, xulosa qilindi va har bir o'rganilgan ma'lumot manbai adabiyotlar ro'yxatida aks ettirildi.

I BOB. XIX ASRNING OXIRI – XX ASRNING BOSHIDA AMERIKA ADABIYOTIDA REALIZM OQIMI VA UNING YIRIK NAMOYONDALARI

I.1. Amerika adabiyotida Tanqidiy realizm va uning o`ziga xos xususiyatlari

XIX asr oxiri — XX asrning boshlarida Yevropa mamlakatlarining madaniy hayotida realistik oqim bilan dekadentlik oqimi o`rtasida kurash avj oldi. Xalq dekadentlik ruhida yozilgan asarlarni qabul qilmadi. Natijada turmushni aniq ifodalaydigan asarlarga ehtiyoj ortdi. Realistik yozuvchilar atrofdagi voqelikni dadil va haqqoniy aks ettirishga intildilar. Shuning uchun bu davr realizm yoki tanqidiy realizm nomini oldi. Bu davrda rus adabiyoti namoyandalari F.M. Dostoyevskiy, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov chet ellardagi zamondoshlari uchun realistik ijodning yangi imkoniyatlarini ochib berdilar.

Gi de Mopassan, Emil Zoiya, Annatol Frans, Romen Rollan, Genrix Mann, Jon Golsuorsi, Bernard Shou, Mark Tven, Teodor Drayzer, Rabindranat Tagor, Lu Sin va boshqalar tanqidiy realizmning eng yirik namoyandalari edilar.

Gi de Mopassan (1850—1893) o`zining “Hayot” (1883), “Azizim” (1885), “Mont-Oriol” (1886) va boshqa asarlari bilan fransuz badiiy dunyosida qator ijtimoiy masalalarni mahorat bilan rango-rang bo`yoqlarda tasvirlagan tengsiz ijodkordir.

J. Londonning ijodi radikal intilishlar bilan ajralib turar edi. Uning “Temir tovon” romanida insoniyat oldida turgan halokat yoki dahshatli azoblar oldindan aytib berildi. Avtobiografik tarzda “Martin Iden” romanida yozuvchi halol san`atkorlarning soxta madaniyat bilan fojiali to`qnashuvini ochib berdi.

Amerikalik yozuvchi T.Drayzerning “Moliyachi”, “Titan” va “Jenni Gerxard” romanlarida amerikalik monopolist, tojsiz qirol, puldor Kaupervudning umumlashgan obrazi berilgan. Kaupervud boyish uchun kurashida qalloblik usullaridan, odamlarni aldash, sotib olishdan foydalanib, o`z maqsadi sari intiladi.

J. Golsuorsi tanqidiy realizmning yirik ustasiga aylandi. U “Munofiqlar oroli” “Forsaytlar haqida doston” asarlarida hukmron doiralarning jaholati, ikkiyuzlamachiligi va o’ta cheklanganligini keskin tanqid qildi.

Bu davrda satira katta ahamiyatga ega bo’ldi. Nemis yozuvchisi, yumorist G. Manning “Sodiq fuqaro” romani hamda “Imperiya” trilogiyasiga kirgan boshqa asarlari juda katta fosh etuvchi kuch sifatida namoyon bo’ldi. Uning sahifalarida ko’plab qirollar va kanslerlarni, zodagonlarni va amaldorlarni, xalqqa xiyonat qilganlarni hamda viloyatlardan chiqqan zodagonlarni, hatto imperator Vilgelm II ni ko’rish mumkin.

Mavjud tuzumni hajv qilishning yirik ustasi atoqli fransuz yozuvchisi A. Frans edi. Uning “Silvester Bonnarning jinoyati” (1881), “Oq toshda” (1904), “Pingvinlar oroli” (1908) asarlarida “Uchinchi” respublikaning illatlari, hukmron doiralarning ma’naviy buzilishi, siyosat arboblarning sotqinligi, monarxlarning fitnalari keskin, oshkora kulgi ostiga olindi. Bernard Shou dramalari, atoqli amerikalik satirik yozuvchi M.Tvenning romanlari, hikoyalari, maqolalari achchiq va darg’azab satiraga boydir. “Olomon qiluvchi Qo’shma Shtatlar” maqolasining nomi yoki “Senator turmada o’tirmagan vaqtlarida qonun chiqaruvchi kishi”, “Xalq xizmatkorlari porani taqsimlash uchun o’z lavozimlariga saylangan shaxslar” nomli o’tkir ta’riflarning o’zi juda qimmatlidir.

Bu davrda jahon demokratik madaniyatining fondi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari yozuvchilarining ijodi bilan ham boyidi. Atoqli Yapon yozuvchisi A. Kyunoske novellalarida parazit mulkdorlar axloqining inqirozi, xalq ommasining umumiy kuchini anglash o’z aksini topdi. Hind gumanist yozuvchisi R.Tagor (1861—1941) falsafiy teranligi va badiiy barkamolligi bilan ajralib turuvchi romanlar, pyesalar, hikoya va she’rlari bilan butun dunyoga mashhur bo’ldi. Uning butun ijodi milliy mustaqillikka otashin chaqiriqdan iborat edi. Ayniqsa, “Halokat va tubanlik” romani mashhur bo’ldi. Xitoylik Lu Sinning ijodi kambag’allarning og’ir ahvoliga chuqur hamdardlik ruhi bilan sug’orilgan edi.

Lotin Amerikasida mavjud tuzumning illatlarini fosh qilish qit'aning eng yirik shoirlaridan biri bo'lgan nikaragualik R.Dario ijodida o'z aksini topdi. Dario "Ruzveltga" nomli g'azabnok she'rida o'zining vatanparvarlik tuyg'ularini ifodaladi.

XIX asrning 2-yarmida Amerika Qo'shma shtatlari hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1861-1865-yillardagi fuqarolar urushi butun Shimol hukmron sinfi quldorlar janubi ustidan ga'laba qozonib, butun mamlakat bo'ylab o'z hukmronligini o'rnatdi. Shundan so'ng AQSH jadal kapitalistik taraqqiyot yo'liga kirdi. Sanoatning muhim tarmoqlari ildam qadamlar bilan rivojlana boshlaydi. 70-80 yillarda monopoliya birlashmalari yuzaga kelib, ishchilarni qattiq ishlatish natijasida katta foyda oldilar. Kapitalizm yuqori va so'nggi bosqichi – imperializmga o'tgach, uning ziddiyatlari yana ham keskinlashib ketdi. 1886-yilning may oyida ishchilar uyushtirgan katta qozg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi. Amerika hukmron sinfining harbiy siyosati kuchayadi. U Ispaniya bilan urush olib boradi, Puerto-Riko, Filippinni o'ziga bo'ysundirib oladi. Qisqa muddatli o'sish va ko'tarilishdan so'ng, mamlakat xo'jaligida inqirozlar boshlanib, son-sanoqsiz ishchilar ishsiz qoladi. Bular Amerikaning o'ziga xos taraqqiyot yo'li bor, u yerda hamma uchun teng imkoniyatlar mavjud degan qarashlar bir quruq xayoldan iborat ekanini ochib tashlaydi¹.

Amerika adabiyotida ham o'zgarishlar yuz berdi. Fuqarolik urushidan so'nggina Amerika adabiyotiga o'sha davrdagi Tanqidiy realizm davri o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Mamlakat siyosatidagi keskin o'zgarishlar, insonga boshqacha nuqtai nazar bilan qarash qalam ahliga ham ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bundan oldin ular o'z his-tuyg'ularini ideal qahramonlari orqali ko'rsatgan bo'lsalar, endi ular hayotni to'laligicha haqqoniy, real qilib aks ettira boshladilar. O'ta tanqidiy adabiyot mavzulari oldingi avlod yozuvchilari-Irving, Longfellov va Kuper asarlarida aks etganlardan keskin farq qilardi. Mark Tven

¹ Богословский Вестник... "Истории реализма в США. Творчество Джека Лондона и Эптона Синклера" (1900-1917) – М., 1963. – 39 с.

bu haqda shunday deydi: “O’tgan 8 yil – 1860-1868 yillarda asrlar davomida saqlanib qolgan ijodiy an’analarni yo’qotdi, insonlarning bir-biriga munosabatini tubdan o’zgartirdi, butun mamlakatning qariyb yarim aholisining ijtimoiy ahvolini yaxshiladi, o’lchab bo’lmaydigan darajada milliy xarakterga ta’sir ko’rsatdi.”²

Tanqidiy realizm oqimi kayfiyati amerikaliklar hayotining hamma jabhalarini qamrab oldi. Ko’pgina oldin ham kuzatilgan adabiy mavzularga sevgi-muhabbat, san’at, san’atkorning hayotdagi roli boshqa ko’z bilan qaray boshlandi. Romantik maktab namoyondalari sevgiga kundalik hayotdan chekinish, dunyoga boshqa ko’z bilan qaray boshlash deb tushunishsa, tanqidiy realizm tarafdorlari burjua jamiyatining nikohni ham shartnoma sifatida ko’rishining qanchalik uyatsiz va nobakor ish ekanligini namoyon etishga urinishdi. Realistlar burjua jamiyati san’atga ham tovar sifatida qarashi ko’rsatishga astoydil harakat qilishdi. Realistlar insonni kundalik konfliktlar orasida namoyon etishdi, uning ortida esa insonning his-tuyg’ulari va tabiatini o’rganishga urinishdi. Adib tomonidan kitobxonga har bir qahramonning o’tmishi, buguni va kelajagini tasavvur qila olish imkoniyati berilardi, chunki asar voqealari tarixiy ketma-ketlikda bir-biri bilan bog’liq edi. Amerikalik realistlar sentimentalizmga qarshi bordilar va balkim shuning uchun ularning asarlari ko’pincha ozgina qo’pol, sayqallanmagan ko’rinishi mumkin, lekin ular har doim haqqoniy hayotni ko’rsatadi.

Amerika tanqidiy realizmining yorqin namoyondalari sifatida Mark Tven, Frank Norris, Stefan Kreyn, Jek London, Teodor Drayzerni aytish mumkin. Amerika tanqidiy realizmi dunyo adabiyotini ijtimoiy notenglik, adolatsizlik, qoratanlilar va hindular masalalari, yosh avlodning taqdiri, ayollarning ozodlikka chiqishi mavzulari bilan boyitdi.

Amerika hukmron tabaqalari realizmning adabiyotga tarqalishini oldini olishga va kapitalistik jamiyatning asl mohiyatini yashirishga ko’p marotaba

² Засурский Я. “Американская литература XX века”. – М, Издательство Московского университета, 1984. – 502 с.

urinishdi. Ular realist yozuvchilarga qarshi uyushishdi: ularni matbuotda obdon tanqid qilishdi, nashriyotlarga ularning kitoblarini chop etishga ruxsat berishmadi, mustaqil ishlaydigan adiblarga ijod qilishga to'siqlar yaratishdi. Ko'pgina adiblar hatto AQSH ni tark etishga majbur bo'lishdi. Ammo amerikalik yozuvchilar shunday san'at asarlari yaratishdiki, bunday asarlar zamonaviy imperializmning reaksion asoslarini ko'rsatib berdi va shu bilan birga bu kelajakda ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashishga zamin yaratdi.

Bir paytning o'zida bu yosh yozuvchilarning ijodi yangi-yangi asarlar bilan boyiy boshladi. 1876-yilda Mark Tven o'zining "Tom Soyerning sarguzashtlari" asarini yaratdi. Yosh qobiliyatli haykaltarosh haqidagi "Roderik Hadson" asari Henri Jeyms tomonidan yozib tugatildi va u o'zining yangi "Amerikaliklarga" asari ustida ishlay boshaldi. Kitobxon yangi turdagi adabiyotga ehtiyoj seza boshladi. Realistlar insonlar hayotidagi muammolarni aniq va ravshan ko'rsatishga, o'sha davrdagi amerikaliklar hayotining qandayligini insonlarga tushuntirishga astoydil urinishdi. Stefan Kreyn "Meggi: ko'cha qizi" asarida qashshoq amerikalik ishchi oilasining taqdirini yosh qizning obrazi bilan namoyon etdi. Teodor Drayzer "Amerika fojiasi"da qashshoq yigitning kapitalizm ta'siri ostida pulga o'ch bo'lishi, boylikka intilishining mudhish qutulmoqlarini yaqqol tasvirlab berdi.

Demak, Tanqidiy realism Amerika adabiyotida Fuqarolar urushidan so'ng o'z cho'qqisiga yetdi, bu oqim namoyondalarining asosiy e'tibori ijtimoiy notenglik, hindu va qoratanlilar muammolari, o'sib kelayotgan yosh avlod kelajagi va ayollarga saylov huquqi berish mavzulariga qaratildi³.

³ Неупокоева Н. "История всемирной литературы. Проблемы системного и сравнительного анализа". – М., Наука, 1976..67с

I.2 Realist yozuvchi Jek Londonning hayoti va ijodiy faoliyati

XIX asrning 2 –yarmida – XX asrning boshida yashab ijod etgan Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, keng xalq ommasining o'z huquqlari uchun kurashchisi mashhur realist yozuvchi Jon Griffit Jek London 1876-yilning 12- yanvarda Kaliforniya shtatining San Fransisko shtatida, kambag'al fermer oilasida tavallud topadi. Jek Londonning asarlari butun dunyoga mashhur, uning asarlari hayotiy rang-barangligi, muhabbatni tarannum etishi, insonlarning beshavqat tabiat bilan kurashini aks ettiradi. Jek Londonning ijodi xilma-xil – uning asarlarida burjua tuzumiga qarshi norozilikni ham, sotsialistik g'oyalarni ham, individualizmni ham va hattoki ijodining so'nggi yillarida tinchlik, barqarorlik mavzularini ham ko'rish mumkin.

Tug'ilganidan so'ng, unga Jon Cheyne deb ism qo'yadilar. Jek London San-Fransiskoda kasodga uchragan fermer oilasida dunyoga kelgan. Yoshlik chog'laridan London moddiy qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, u gazeta tarqatish bilan pul topgan, keyinchalik konserva mahsulotlari zavodiga ishga kirgan. 14 yoshida uyidan chiqib ketib, mustaqil hayot kechira boshlagan. U bolalik chog'larida hayotning hamma og'ir mashaqqatlarini boshidan kechiradi, o'n yoshidan boshlab ko'chalarda gazeta sota boshlaydi. Jek o'smirlik yoshiga yetgach, konserva zavodida 12-14 soatlab ishlaydi va bunday ish shubhasiz uni holdan toydirar edi. U matros bo'lib Uzoq Sharqqa qatnaydi, bir necha muddat elektrostansiyada o't yoquvchilik qiladi. Keyinchalik u yana ko'p marta kasbini o'zgartiradi va shtatdan shtatga sargardon yuradi⁴.

Ko'p o'tmay ishsiz qolib, mamlakat bo'ylab kezib chiqadi. 1893- yilda "Sofi Sazerlend" kemasiga matros bo'lib yollanib qarzini to'lash uchun pul to'plab oladi. 1894-yilda u yana Kaliforniyani tark etib ishsiz kishilar bilan Vashingtonga jo'nab ketadi. U yerda guruh tarqalib ketib, Jek ancha vaqtgacha darbadarlik qilib yuradi va Kanada chegarasida ushlanib qamoqqa olinadi. U

⁴ London, Joan "Jack London and His Times", New York: Doubleday, Doran & Company. Inc, 1939 y.p39

doimiy boshpanasi bo'lmaganligi sababli 1 oy davomida ozodlikdan mahrum qilinadi. Jek London 1895-yilda ijtimoiy ishchi partiyasiga a'zo bo'lib kiradi va uning targ'ibot-tashviqotchilik faoliyati boshlanadi. 1896-yilda yozuvchilikka berilib, u o'z kuchini turli janrlarda sinab ko'radi. Universitetga kirib, bir yil o'qiydi, iqtisodiy ahvoli o'qishni tashlab ketishga (1897-yil) majbur etadi. Kir yuvish korxonasiga ishga kirganda og'ir mehnat uning tinkasini quritadi. Shundan so'ng u oltin koni topilgan Alyaskada ishlab, katta tajriba orttirib qaytadi. Yosh Jek har qadamda hukmron sinf jamiyati tug'dirgan dahshatlar nimadan iborat ekanini ko'radi.

Jek London 1897-yilda Alyaska (Klondayk)da boshlangan "oltin vasvasasi" girdobiga tushib, oltin izlovchilarga qo'shilib, Kanadaga jo'nab ketadi. Bir necha yil umrini o'sha yerda o'tkazadi. Uzoq shimolga Jek London baxt izlab boradi. Shimol sovuq iqlim sharoiti oltin izlovchilarning va hindularning yashash tarzi, xarakteri Londonga u yerdan qaytgach ko'plab boy syujetli va rang-barang hikoyalar yaratishga undaydi.

1900-yildan boshlab uning hindular va shimol qabilalari haqidagi ko'plab hikoya to'plamlari chop etila boshlandi. Ularda muallif janubiy dengizga sayohati haqida ham batafsil ma'lumot beradi. Ancha paytdan so'ng uning hikoyalari juda mashhur bo'ldi va Jek London professional yozuvchiga aylana bordi. Shimoliy dengiz sayohati Jek London asarlar to'plamining bir guruhiga kiradi ("Bo'rivachcha", "Sovuq bolalari", "Janubiy dengiz hikoyalari").

Bu yorqin va o'ziga xos asarlarida Jek London ijtimoiy nohaqlik, notenglik va insonlarning pastkashligiga qarshiligini namoyon etadi, muallif bu kabi xislatlarni shimolning sovuq iqlim sharoitiga va sivilizatsiyadan ortda qolgan odamlarning kuchli fe'l-atvoriga qarama-qarshi qo'yadi. London tez-tez sivilizatsiyadan yiroq hindularni va Tinch okeani xalqlarini beg'ubor, kuchli va mard kishilar sifatida tasvirlaydi. London ularni beqiyos romantiklar qilib ko'rsatadi va ularning tabiatidagi jo'shqinlik, jasurlik va hayot uchun kurashga

hozirlikni ko'klarga ko'tarib maqtaydi ("Shimoliy Odisseya", "Kishe haqida afsona", "Oq sukunat" va boshqalar)⁵.

London "Oq sokinlik" – qorni yengadigan, beshavqat ob-havoga qarshi tura oladigan shaxslarni beqiyos ulug'laydi. Lekin u o'z qahramonlari – oltin izlovchilar va hindularni o'taketgan individualistlar – o'zlarini boshqalardan ustun qo'yuvchi kishilar sifatida ifodalaydi. Ularning o'ziga xosligi, oqilligi, kuchli irodasi, jismoniy ustunligi nafaqat odamlarni, balkim hayvonlarni ham yenga oladi va o'ziga bo'ysundira oladi.

1900-yildan so'ng Jek London asosan ishchilar, o'z haq-huquqi uchun kurashuvchilarga ba'gishlangan edi. Mana shunday hikoyalardan biri "Yo'ldan ozgan" hikoyasidir. Hikoyada muallif 7 yoshidan boshlab tinimsiz ishlagan va og'ir mehnat qilish natijasida ish mashinasiga o'xshab qolgan bola Jonning g'amgin hayotini so'zlab beradi.

Bu davrda uning eng mashhur asarlaridan biri "Martin Iden" ning yaratildi.

Londonning birinchi ijodiy ishi va ocherki "Yaponiya qirg'oqlaridagi tayfun" 1893-yil 12-noyabrda mukofotlandi va taqdim etildi. Alyaskadan qaytganidan so'ng, u adabiyot sohasiga jiddiy kirishib, 1899-yilda o'zining shimol hikoyalarini bosib chiqaradi. 1890-yilda o'zining birinchi kitobi "Bo'rivachcha" nashr etiladi⁶.

1903-yilda yosh Jek Londonga tashrif buyuradi. 1905-yilda Londonning nomzodi Oklend hokimligiga qo'yiladi va u unda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. 1910-yildan esa u siyosiy hayotdan chetlana boshlaydi.⁷

O'zining 40 yillik qisqa umrida Jek London Kaliforniya ranchosida qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Keyinchalik Rus-Yapon urushida, Meksika inqilobida, San Fransiskodagi yer qimirlashi vaqtida u reportyorlik qildi, Harvard va Yel universitetlarida ma'ruzalar o'qiydi. Bir qancha og'ir kasalliklarni boshidan kechiradi va 2 marta uylanadi. Umrining oxirgi yillarida

⁵ Зверев А. "Джек Лондон". М., 1975.87с

⁶ London, Jack; Taylor J. Golden "A Literary history of the American West" Fort Worth: Texas Christian University Press, 1988 y.p285

⁷ London, Joan "Jack London and His Times", New York: Doubleday, Doran & Company. Inc, 1939 y.p39

ichkilik girdobiga tushib qoladi.1916 -yilning 22- noyabrida Jek London San Fransisko yaqinidagi Glen Ellen shaharchasida vafot etadi.

Jek Londonning ijodiy faoliyati juda og'ir sharoitda boshlandi.1899-yilda Amerika jurnallarida Shimol hayotidan olib yozilgan “Yo’ldagilar sharafi uchun”, “Oqsukunat”, “Bo’rivachcha” va boshqa hikoyalari paydo bo’ladi. “Otalar xudosi” (1901-yil), “Sovuq bolalari” (1902-yil) hikoyalar to’plamlari yozuvchiga katta shuhrat keltiradi⁸.

1905-1910 yillar Jek London ijodining yuqori cho’qqisi hisoblanadi.U shu davrda inqilobiy ruhdagi maqolalarni (“Inqilob”), “Temir tovon”, “Martin Iden” kabi eng yaxshi romanlarni yozadi. Jek London 200 ga yaqin hikoyalar, 400 ga yaqin ommabop asarlar, 20 ta roman, 3 ta pyesa muallifidir. Uning “Shimol Odisseyasi” asari tez shuhrat qozondi. Jahondagi obro`-e’tiboriga qaramasdan Rossiyadagi inqilobdan oldin Jek Londonning faoliyati deyarli ko’rinmas edi. 1917-yildan keyin Londonning ba’zi kitoblari “O’g’rilik”, “Oq tish”, “Uch yurak” film sifatida ekranda namoyish qilindi⁹.

London qahramonlari – birinchidan, oddiy mehnatkash kishilar, qaysiki qiyinchiliklarga tik ko’z bilan qarashga ularni yengib o’tishga harakat qiluvchilar. Masalan, oddiy dengizchi Martin Iden, havaskor-bokschi Felips Rivera, universitet professori Freddi Dramond-ularning bari mehnatni e’zozlaydigan, atrofdagi voqealarga e’tibor beradigan insonlardir.

Jek London – asarlari dunyo bo’ylab eng ko’p o’qiladigan amerikalik yozuvchi. YUNESKO ning ma’lumot berishicha, 2004-yilda uning asarlari dunyoning 31 davlatida chop etilgan. U Amerika adabiyotining boshlaridan biri bo’lib, u o’ziga xos, progressiv an’analarni boshlab bergan yozuvchi sanaladi.

Jek London XX asrda nafaqat Amerika Qo`shma Shtatlarida, balki butun dunyoda mashhurlikka erishgan eng birinchi amerikalik yozuvchi edi. Uning eng birinchi asari chop etilganiga 100 yildan oshdi. Jek Londonning ijodiy faoliyati juda qisqa davom etgan, u juda qisqa umr ko’rdi, biroq shu davr

⁸ London,Jack; Taylor J. Golden “A Literary history of the American West” Fort Worth: Texas Christian University Press, 1988 y.p287

⁹London, Joan “Jack London and His Times”, New York: Doubleday, Doran & Company. Inc, 1939 y.p39

mobaynida juda ko'p jahon adabiyoti durdonalarini yaratdi. XX asrda ham Jek London asarlari o'z dolzarbligi, o'ziga benihoya tortishi, jozibasini yo'qotmagan. U qariyb 20 yil davomida ijod bilan shug'ullandi, shu vaqt mobaynida u hozir ham katta qiziqish bilan o'qiladigan san'at asarlarini yaratdi.

Amerika adabiyotida Jek London Uolt Uitmenning gumanistik harakatini davom ettiradi. Garchi II Jahon urushidan keyin modernistik tendensiyalar paydo bo'lgan bo'lsa-da, insonga ishonch an'anasini hozirgacha ham Amerika adabiyoti namoyondalarining asarlarida ko'rishimiz mumkin¹⁰.

I.3. Teodor Drayzer –Amerika adabiyoti yirik namoyandasi

Drayzer ijodi – XX asrning birinchi yarmi Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning cho'qqisidir. Drayzer AQSH hayotidagi fojiaiviylikni ko'rsata olgan yirik san'atkor bo'lib, uning ijodi, ayniqsa, Oktabr revalyutsiyasining jahonshumul g'alabasi ta'siri ostida ravnaq topdi, u Amerika qit'asida sotsialistik realizm adabiyotiga asos solgan yirik yozuvchi va jamoat arbobi sifatida taniladi.¹¹

Jahon adabiyotining taniqli namoyondasi, serqirra ijodkor, journalist, naturalizm maktabining yorqin vakili va Amerika adabiyotining so'nmas yulduzi Teodor Drayzer zamonasining kuchli yozuvchilaridan biri bo'lgan. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida qalam tebratgan bu yozuvchi o'sha davr muhitini yaxshi ochib bergan, obrazlarini yaratishda jamiyatning ishchilar sinfiga ko'proq e'tibor qaratgan. Uning eng asosiy tayanchi o'zining boshidan kechirgan murakkab va qiyinchiliklarga to'la bo'lgan hayoti va ijodidir. Teodor Drayzer-Teodor Albert German Amerika yozuvchisi va jamoat arbobi "Chikago deyli nyuvs" (Chicago daily news) gazetasi muhariri (1892).¹²

Teodor Drayzer Indiana shtatining Terre-Xot qishlog'ida serfarzand, shuning barobarida qashshoq oilada dunyoga keladi. U Sara va Jon Drayzerning

¹⁰William,James "Jack London's Works by Date of Composition". The Jack London Online Collection, 2010 y.p34

¹¹Qayumov L. "Chet el adabiyoti tarixi" Toshkent "O'qituvchi" 1987-yil 304-bet.

¹² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat milliy nashriyoti 2002-yil.369-370-betlar.

o'n ikkinchi bolasi edi. Teodorning to'g'ich akasi Paul Drayzer(1859-1906) zamonasining mashhur kompozitorlaridan biri bo'lgan. 1844-yil o'z ona yurtini tark etgan oila boshlig'i Jon Drayzer Germaniyaning Mayyen shahri fuqarosi bo'lgan. Keyinchalik esa Angliya o'rmonlarida qisqa vaqt davomida daraxt kesuvchi bo'lib faoliyat ko'rsatadi. So'ngra O'rta G'arbga ya'ni yurtdoshlari makon qurgan zaminga ko'chib o'tadi. Biroz muddatdan so'ng Ogayyo shtatiga boradi. U yerda o'z baxtini uchratadi, ammo sevgilisi Saraga yetishish uchun ko'pgina to'siqlarni yengib o'tish kerak edi. Saraning oilasi o'ta dindor oila edi, katolik mazhabining har bir qonun-qoidasiga o'ta mas'uliyat bilan yondashilardi. Jon esa provaslav mazhabida edi, shuning uchun Mennotilar oilasi bu yigitni qabul qila olmasdilar.

Ammo har yerda muhabbat g'olib deganlaridek, bu juftlik bir-biridan ayrilmadi. Aksincha ular uchun yagona yo'l bu diyorni birgalikda tark etish edi va bu ishni ular uddalay oldilar. 1851-yilda bu juftlik o'rtasida nikoh o'qildi, turmush o'rtog'i o'zidan o'n ikki yosh katta o'n yetti yashar kelinchakning quvonchi cheksiz edi. Teodorning bolalik yillari haqida yozgan estaliklarida onasining bu baxtli lahzalarni tez-tez eslashini alohida ta'kidlab o'tgan. Sara va Jon avval Indiana shtatining Fortvoyne shahriga so'ng Terra-Xotga ko'chib kelishadi. Bu shaharda otasi yog'och biznesi bilan shug'ullanadi, tez orada uning bu biznesi gullab yashnaydi va Sullivendan o'ziga yer sotib oladi. Ammo 1869-yil omad bu oiladan yuz o'giradi, taqdir o'z hukmini o'tkazadi, ularning yeriga o't ketadi va shundan so'ng bu oila o'zini tiklay olmaydi. Jon bir so'm pulsiz va ishsiz bo'lib qoladi. 1870-yil boshida mamlakatda hukm surayotgan iqtisodiy tanglik va ishsizlik bu oila ahvolini yanada chigallashtirdi va bu hol uzoq vaqtga cho'ziladi. Baxtiqaro bolakay Teodorning bolalik yillari ayni shu paytga to'g'ri kelib qolgandi. Drayzerning bolaligi ochlikda va muhtojlikda o'tdi. Uning ilk xotiralari o'sha davrning o'g'ir damlari, oilaning iqtisodiy taqchilligi, otasining ishsizlik paytlari bilan qamrab olingandi. Teodorning ilk o'smirlik yillari Indiana shtatining beshta shahrida (Chikagoda ham bir necha oy istiqomat qilishgan) kechgan. Albatta hayotidagi bu o'zgarishlar Teodorning

ruhiyatiga, ilm olishiga, ijodiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Drayzer o'qish u yoqda tursin, kun ko'rishga ham qiynalib, pul topish uchun ertadan kechgacha qiynalib tinimsiz mehnat qilar edi.¹³

O'sha paytda Amerika adabiyoti katoliklar ta'siri ostida edi va faqat ko'proq e'tibor nemis adabiyotiga qaratilgan edi va bu Drayzerga katta ta'sir ko'rsatadi. Teodor o'zining adabiy faoliyati davomida nemis-amerika klassik adabiyotining haqiqiy hayotiy rasmini chizib bera olgan va bu o'z asarlarida aksini topdi. O'sha paytdagi og'ir hayot, nochorlik, iqtisodiy yetishmovchilik, moddiy ahvolning tangligi, uning adabiyotga bo'lgan mehrini, o'qish otashini zarracha pasaytirmadi. Oilani tebratish uchun bechora ona odamlarning kirini yuvar va Teodor unga tayyorgina dastyor edi, ona-bola kunduzlari qora mehnat qilishar, holdan toygan Teodor esa kechqurunlari kitob varaqlashga ham vaqt ajratar edi. Uning bolalik xotiralari haqida yozgan estaliklarida ularning bu ahvolga tushishlariga, qiyinchilik bilan umrguzaronlik qilganliklariga ko'pincha otasini aybdor deb hisoblardi. Chunki otasi o'sha paytda ruhoniylar bo'lib olishga ulgurgan va u bolalariga, yaqinlariga haqiqiy baxt bu foniylar dunyoni tark etgandan so'ng, Olloh huzurida bo'lishini uqtirishga harakat qilar edi. Uning o'zi bu ta'limotga qattiq ishonar va boshqalarning ham shunday bo'lishlariga da'vat etardi. U oila tebratishga harakat qilmas, oilasini qiyin moddiy ahvoldan olib chiqishga urinmasligi Teodorga og'ir botar edi va uning qalbini yaralardi. Teodor ham boshqa bolalar singari baxtli, quvonchli hayot tarzini o'tashni xohlar, bu dunyoga alamzadalik, xo'rlanish bilan emas, balki beg'ubor, yorqin ko'zlar bilan boqishni istar edi. Balki shuning uchun hamdir uning ko'pgina asarlarida bolalikning o'g'ir asoratlarini uchratish mumkindir. Uning bu alamzadaligi, hayotga bo'lgan nafrati, qayg'uga limmo-lim to'lgan bolaligi uning eng yaxshi asarlaridan biri "Jenni Gerxard" da o'z aksini topadi. Bu asarida u o'z oilasini model qilib oladi. Misol uchun: Gerxardtlar oilasining Indiana shtatida yashashi, otasining kelgindi bo'lishi, ota va bola tushunmovchiligi, otasining bolalar oldida o'z avtoritetini yo'qotishi, otasining

¹³ Засурский Я. "Теодор Драйзер". Москва, 1977. 30-31с

dinga mukkasidan ketishi va hokazolar. Drayzer bu modelini yana boshqa asarlarida kengaytirdi, masalan, “Amerika fojiasi” romanida ham xuddi shunday befarq ota (Eysa) obrazini ko’rishimiz mumkin. Endi u nafaqat o’z oilasining balki, boshqa bir oddiy Amerika oilasining portretini chizdi.¹⁴

Onasining vafotidan so’ng Drayzer Chikagoga borib dastavval restoranda idish-tovoq yuvuvchi, yer o’lchovchi, usta tekshiruvchi, tovar stantsiyasida nazoratchi bo’lib ishlaydi, kir yuvish shaxobchasida mexaniklik qiladi. Qo’yingki uning qilmagan ishi, ish qidirib kirmagan ko’chasi qolmagan edi. Maktabni bitirib, 1883-yil Indiana Universitetiga kirib, bir yil o’qib, uni tashlab ketishga majbur bo’ladi. Chunki iqtisodiy ahvoli o’qishni davom ettirishga imkon bermaydi. Shunday bo’lsada, hamma vaqt o’qishni davom ettirishi lozimligini qalban his etib yuradi. Bunday moddiy qiyinchiliklar uning dunyoqarashiga katta ta’sir ko’rsatadi. Turli tuman odamlar bilan uchrashadi, yaxshi-yomonni ko’radi. Hayotning murakkab qirralariga duch keladi. Ular haqida yozishni orzu qiladi. Bu orzu uni Chikago, Sent-Luis, Kleveland, Pitsburg, Nyu-York gazetalari bilan aloqa bog’lashga yetaklaydi. 1892-yil iyun oyida yigirma bir bahorni qarshilashiga ikki oy qolganida Chikago gazetasida durustgina maqolasi “Negr Jeff” nashr etiladi. Uch yil davomida bu gazetada faoliyat yuritganidan so’ng, oylik maoshi yuqoriroq bo’lgan boshqa ishlarga o’tib ketadi. Ammo aslini olganda u bu yerda tajriba maktabini o’taydi, ya’ni uning bu ijodiy faoliyati katta ijod ko’chasiga qadam qo’yishiga turtki bo’ladi.

Drayzer jurnalist sifatida faoliyat yuritgan paytda hech qachon mashhurlik cho’qqisiga intilmagan. U maqola va xabarlar yozayotganida, ularga ko’p ham badiiy jilo beravermasdi. Ya’ni u bo’rttirish, yanada serjilovlantirish san’atidan olisda edi. U shunchaki jamiyat hayotida sodir bo’layotgan, odamlar e’tibor berishi kerak bo’lgan, hayotning ko’z ilg’ar-ilg’amas nuqtalarini omma e’tiboriga havola etardi. Balki real hayot bilan birgalikda qadam tashlagani uchun ham odamlar orasida tez tilga tushadi. O’zi xohlamagan bo’lsada, uning nomi gazetalarda tilga olinib boshlanadi. Sent-Luyis gazetasida faoliyat yuritishi

¹⁴ Theodor Dreiser “A book about myself”.New-York,1922.960-961-betlar.

davomida yangi qirralari ochilib boradi. Endi Drayzer dramaturg, kritik, serqirra ijodkor va izlanuvchan muxbir sifatida tilga olinib boshlanadi. Uning tanqidiy maqolalari xalq orasida tez ommalashadi va u kritik muxbir sifatida samarali ijod qiladi. 1890-yil tajribali muxbir keyingi asari uchun zamin yaratadi. O'tgan yillardagi faoliyati davomida maxsus kichik-kichik hikoyachalar yoza boshlaydi, ularga maxsus qahramonlar tanlaydi, dialog, monolog bilan boyitishga harakat qiladi, obrazlar yaratishda badiiy bo'yoqlardan foydalanadi, ularni jonlantirishga, yanada kitobxonga yaqinlashtirish uchun butun mahoratini ishga soladi.¹⁵

Bilinga tashna Drayzer o'sha vaqtda keng tarqalgan Gerbert Spenser falsafasini qiziqib o'rganadi. Uning qarashlari Drayzerni sotsial voqealarni biologik qonunlar asosida tasvirlashga, turmushni noto'g'ri talqin etishga olib boradi. Spenser og'ir ahvolga hukumatni ham, jamiyatni ham ayblab bo'lmaydi, bunga hayotning biologik qonunlari aybdor, deydi. U yugurishda ildam, kurashda kuchli yengadi, degan qarashni targ'ib qilar edi. Drayzer muxbir-reportyor bo'lib Chikago, Nyu-York kabi katta shaharlarda ishlay boshlaydi. Xalqning og'ir ahvoli bilan tanishadi. Lekin Spenser qarashlarining asossizligini tushunib yetmaydi. Dastlabki hikoyalaridagi umidsizlik kayfiyati turmushni to'g'ri anglamaslik oqibatida kelib chiqadi. Oliy ma'lumotli bo'lmasda Drayzer gazetalarda durustgina maqola va xabarlarni berib boradi.¹⁶

Keyinchalik T.Drayzer L.N.Tolstoy ijodi bilan tanishadi. Tolstoy asarlari uni yozuvchilik ko'chasiga olib kiradi. Uning asarlarini muttassil o'qiydi va ular yosh Drayzerga katta ta'sir ko'rsatadi. Uning ijodi shunisi bilan qiziq-ki, u hech qachon o'zi yaratgan obrazlardan ko'ngli to'lmagan, doim qandaydir kamchiligi borday tuyulavergan. Balki shuning uchun hamdir uning bu tantiqligi, ijodidan ko'ngli to'lmashligi yozuvchi qalamini yanada o'tkirlashtiradi. Bekorga uni zamonasining "yozuv mashinkasi" deb atashmagan. Tabiiyki, bu narsa uni yanada ruhlantiradi, u she'riyat sohasida ham qalam tebratadi. Biroz muddat

¹⁵ <http://www.wikipedia.com>, the free encyclopedia.

¹⁶ Boynazarov F. "Jahon adabiyoti" Toshkent, 2006-yil. 124-bet.

opera teatrida ham ishlaydi. Operalar uchun maxsus kichik-kichik she'riy parchalar yozib tiradi, xususan komediya yo'nalishidagi "Jeremi operasi" uchun yozgan she'riy parchalaridan namunalar saqlab qolingan.

Tajriba maktabini yaxshi o'tagan Drayzer nazmdan nasrga tomon ilgari lab boradi. U o'z ustida ishlashni kanda qilmaydi, ilmini, dunyoqarashini yanada boyitishga harakat qiladi. Ilm doirasini falsafa, tarix, adabiyot, ma'naviyat sohasi bilan kengaytiradi. Garchi Drayzer oliy ma'lumotli bo'lmasada, Benjamin Franklin siyosatini o'zlashtirishga harakat qiladi, uning asarlarini qunt bilan o'qiydi, jahon adabiyoti yozuvchilarining asarlariga katta qiziqish bildiradi. Jahon adabiyotining kuchli qalamkashlari Edgar Allen Po, Gerbert Spenser, Jon Steynbek, Jek London, Edit Varton, Stefen Kreyn, Balzak, Emil Zolya ishlarini katta qiziqish va qunt bilan o'qiydi, ular ijod qilayotgan oqimini tahlil qiladi va ulardan namuna sifatida o'z yo'nalishini, o'z uslubini shakllantiradi. Xullas, Drayzerning ijod bulog'i hech qachon qaynashdan to'xtamaydi.

"World" gazetasida qisqa faoliyat yuritganidan so'ng Drayzer "Haviland and Co-a music-Production" kompaniyasigaishga kiradi. Bu kompaniyada u akasi Paul Drayzer bilan birgalikda faoliyat yuritadi. Teodor qo'shiq matnini yozar, akasi esa unga musiqa bastalardi. Aka-uka Drayzerlar birgalikda Amerika tarixida o'chmas iz qoldirganlar. Ular Indiana shtati madhiyasi "On the banks of the Wabash" ("Vabash qirg'oqlarida") ni yaratganlar. Bu madhiya hali ham Indiana shtatida yaxshi xotirlanadi, taassufki uning mualliflari ham.

T. Drayzer adabiy ish jarayonida jurnalizm sohasida anchagina tajribaga ega bo'lib oladi. Endi u muharrirlik qila boshlaydi. "Every month" va "The Woman's Magazine of Literature and popular music" jurnallariga bir qancha muddat muharrirlik vazifasini bajaradi. Maqola, ocherk, hikoya, povestlar bilan gazeta nashrlarini rangbarangligini oshiradi. Ana shu ijod namunalarida Drayzer ilk bor o'z shaxsiy fikrini, nuqtai-nazarini bildiradi, jamiyat muammolarini keng ommaga havola etadi. Tarix, falsafa, mantiq, san'at, iqtisod va siyosat sohalariga ham e'tiborini qaratadi. Drayzerning shu tariqa samarali ijod

qilishiga jahon adabiyotini qunt bilan o'rganganligi, xususan **Romantisizm, Realizm** yo'nalishidagi ijod namunalarini o'zlashtirishi va Naturalizm oqimining namoyondalari Charlez Darvin, Gerbert Spenser, Tomas Xuxli va shuningdek kuchli qalam egalari Tomas Gardi va Onore De Balzak asarlarining chuqur ta'sir ko'rsatishi keng imkoniyat eshiklarini ochib beradi.¹⁷

1897-yilda Drayzer "Every month" jurnalining muharrirligi vazifasini tark etishga majbur bo'ladi. Endi ijod pillapoyalarida o'sib borayotgan yosh niholni sindirishga harakat qilgan ba'zi bir g'ayriniyat kimsalar Drayzer muvaffaqiyatini ko'rolmaydilar va uni erkin ijod qilishiga xalaqit berdilar. Endi u yozib bergan maqolalariga kamroq haq to'lanadigan, har bir yaratgan ishidan kamchilik axtaradigan bo'lishdi. Hatto uning bir ocherki o'n ikki marotaba qaytarilgan, xullas uning maqolalari endi gazeta va jurnallarning har yangi sonida emas, balki oyida bir ikki bor gazeta yuzini ko'radigan bo'ldi. Shundan so'ng Drayzer bu jurnalni tark etdi. Va uch yil davomida mustaqil erkin yozuvchi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Ora-orada "Munsley's Metro politan" va "Harper's Monthly" jurnallariga o'z hikoya va ocherklarini taqdim etib boradi. Uch yillik tanaffusdan so'ng Drayzer yana jurnalistika sohasiga qaytadi. Endi u tajribali journalist sifatida Amerikaning taniqli kishilari, mashhur yozuvchilar va davlat odamlaridan intervyu olardi. U Andri Karnegi, Tomas Edison, Marshal Fild, Villiam din Hovels va Filip Armordan intervyu olgan. U bu sohaga yanada chuqurroq bog'lanib borardi. Endi Drayzer boshqa jurnallar aloqa o'rnatadi va keng qamrovli mavzularda ijodiy izlanishlar olib boradi. Ijodkorimiz "Amerika mevachilik sanoati", "Chikago go'sht mahsulotlari", "Zamonaviy san'at", "Shisha stakanlar yasash sanoati" va "Alfred Shtigilz portreti" mavzularida ilmiy maqolalar e'lon qiladi. Bu ishlaridan Drayzerning naqadar serqirra ijodkor, izlanuvchan shaxs ekanligini e'tirof etishdan boshqa ilojimiz yo'q.¹⁸

Yozuvchi jurnalistika sohasi bilan birga nazm va nasrda ham o'zini sinashda davom etaverdi. Uning ilk hikoyalari safiga "Negr Jeff", "Butcher

¹⁷ <http://xroads.Virginia.edu/~Hyper/Dreiser/>.

¹⁸ Николаев А. "Драйзер-великий американский писатель". Москва, 1999. 59-с

Rogaum's Door" ("Qassob Rogam eshigi") va "Shining Slave Makers" ni kiritishimiz mumkin. Bu hikoyalar bugungi kungacha kitobxonlar orasida yaxshi olqishlanadi, ular hali ham ta'sir kuchiga kitobxonlar nazdida. Bu hikoyalar Amerika hayotida XIX asrning so'nggi o'n yilligida yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi.

Drayzer ijodining birinchi davrida (1900-1917) yirik realistik asarlar yozishi bilan bir qatorda reaksion Spenser falsafasiga berilishi unda ziddiyatli fikrlar tug'ilishiga va uning yanglish xulosalar chiqarishga olib boradi. Drayzer ijodining ikkinchi davri (1917-1945) Oktabr revolyutsiyasidan keyingi yillarga to'g'ri keladi. Sotsialistik g'oyalar ta'siri ostida u o'zidagi burjua ideologiyasi ta'sirini bartaraf etadi, **yirik tanqidiy realist yozuvchi** bo'lib yetishadi.

Daryzerning yana shaxsiy hayotiga qaytadigan bo'lsak, 1898-yil u uchun unutilmas yil bo'ldi. U bo'lajak turmush o'rtog'ini uchratdi. Uning jufti haloli Sara Osborn Vayt Missuri shtatida maktab o'qituvchisi bo'lib ishlardi. Avvaliga ular shunchaki suhbatdosh do'st edilar. Drayzer Sarani mashhur bir yozuvchining hayoti va ijodiga bag'ishlangan kechada uchratdi. Sara ham xuddi Drayzer singari adabiyot oshuftasi edi, ular san'at va adabiyot shaydosi edilar. Kechada bu juftlik orasida kechgan iliq suhbat ularni bir umrga bog'ladi. Qizning nutqidagi samimiylik, adabiyotga mehri va ko'zlaridagi ilmga chanqoqlik otashi, o'zini tutishi, odob bilan so'zlashi Drayzerni batamom o'ziga maftun etdi. Dastlabki uchrashuvlarda ular faqat ijtimoiy sohalarda, ayniqsa adabiyot sohasida, qizning qaysi asarni o'qigani-yu va asarlar tahlili haqida suhbat qurar edilar. Drayzer qizga ko'p maktub yuborar edi va maktublarning birida Drayzer Saraga bo'lgan munosabatini yashirib o'tirmadi. Va uning qo'lini so'radi. Sara ham yigitga befarq emas edi va ko'p o'ylab o'tirmay, qiz yigit taklifini qabul qildi. Va bu uchrashuvlarning intihosi nikoh bilan yakunlandi. Ming afsuslar bo'lsinki, bu nikoh ko'pga cho'zilmadi va ular 1909-yilda ajrashdilar. Ammo Drayzer hech qachon ajralishni xohlamagan. Sara esa turmush o'rtog'ining xohish-istaklariga qaramay uni tashlab ketgan. Bu Drayzer qalbida o'ta og'ir jarohat bo'lib qoldi.

Drayzer 1893-yilda Sent-Luyis gazetasida faoliyat ko'rsatayotgan paytda katta bir ishga qo'l urdi. Ayolining qo'llab-quvvatlashi va do'sti Artur Genri (u yozuvchi shuningdek "Toledo Blade" gazetasining muharriri) yordami bilan birinchi romani "Sister Carrie"("Baxtiqaro Kerri") ni yozishga kirishdi. Bu asarning yozilishiga turtki bo'lgan asosiy sabab Drayzerning opasi bilan bog'liq bo'lgan hodisa hisoblanadi.

Yozuvchining birinchi romani nashrga ruxsat etilmasligi, uning ruhiyatiga qattiq ta'sir etsa ham, umidini biroz so'ndirsa-da, ammo u hayotning beshavqat qonunlari oldida taslim bo'lmaydi, umidsizlikka berilmaydi, o'zini qo'lga olib katta kuch va shijoat bilan yangi umid ila ikkinchi romani ya'ni "Jenni Gerxard" (1911) ustida ishlaydi. Bu ikki asarda ham oddiy qizlar taqdiridagi ijtimoiy axloqsiz masalalar tasvirlangan.

Teodor Drayzerning dushmanlari bu qashshoq, o'qimagan yigitning mashhur bo'lib ketishidan xavotirga tushishadi. Bu davr ichida Drayzer hayotida notinchliklar boshlanadi. 1912-yilda Drayzer ilk bor Yevropaga safar uyushtiradi. Uni Britaniyalik nashriyotchi Grand Richards mehmon sifatida o'z mamlakatiga taklif etadi. Angliyaga birinchi marotaba tashrif buyurgan Drayzer bu yerning tabiatidan, ob-havosidan bahramand bo'ladi. Ijodkorga bu zamin yaxshi taassurot qoldiradi. Qisqa vaqt ichida bu diyorga sayohat uyushtirgan yozuvchi bu mamlakat safari haqida asar yozadi: "A Traveller at forty"(1913) ("40 yoshli sayohatchi "). Shundan so'ng Drayzer Grinvich qishlog'iga yo'l oladi va bir muddat u yerda yashaydi. 1910-yilda yozuvchi liberal oqimining vakillari va radikal guruhlar bilan yaqin aloqa o'rnatadi. U siyosiy radikalchilar xususan Maks Istman, Daniel De Leon va Floyd Dell bilan yaqindan tanishib ular bilan birlashadi. Bu oqim yo'lboshchisi Margaret Sangerni qo'llab-quvvatlaydi. Anarxist Emma Goldman bilan yaqindan do'st tutinadi va u bilan tez-tez fikr almashib turadi. Drayzer o'zining siyosiy qarashlarini, fikrlarini, estetik maqsadlarini "The Masses" jurnali orqali namoyon etib boradi. Umuman

olganda Drayzer mustaqil siyosatshunos, o'z qarashlariga ega mustaqil va essentik ya'ni noan'anaviy ideyalogiyaga ega shaxs edi.¹⁹

Teodor Drayzer hayotiga N. Lev Tolstoy, Jek London kabi taniqli adiblarning ijodi katta ta'sir ko'rsatadi. Buni Teodor Drayzerning o'zi ham haqli ravishda tan olib, ayniqsa, bu ikki buyuk adiblarning deyarli barcha asarlarini o'qib chiqqanligini ta'kidlab, uning qarashiga katta ta'sir o'tkazganligini badiiy ijod bo'sag'asiga yetaklab kelganligini alohida e'tirof etib o'tadi. Teodor Drayzer qo'liga ilk bora qalam olar ekan kelajakda Amerika tarixini va haqli hayotidagi muhim voqealarga qo'l urishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ham yozuvchi o'zining asarlarida qashshoqlar hayotini, og'ir sinov so'qmoqlarini ko'proq qalamga oladi.

Yosh yozuvchining xalq hayotiga yaqin turishi, unda demokratik dunyoqarashning shakllanishiga va bu esa uning tez orada Amerika burjua jamiyati illatlarini payqab oluvchi va ularni fosh etuvchi yirik gumanist yozuvchi sifatida tanilishga yordam berdi.

T.Drayzerning "Amerika fojiasi" asari voqelikni keng qamrab olishi, ko'tarilgan g'oya va tanqidiy fikrning chuqurligi, badiiy mahoratning yuksakligi bilan jahon progressiv adabiyotining eng yaxshi realistik asarlari qatoridan joy oldi.

Ushbu romanida Drayzer pulning san'at ustidan fojiiyaviy hukmronligi va qanday yo'l bilan bo'lmasin, ijtimoiy "yutuqqa" erishishga intilgan "o'rta hol" yigitning ma'naviy halokati haqida hikoya qiladi. Undagi favqulodda katta talantni butun Amerika kitobxonlari olqishlaydi.

U o'z ijodida **realizm bilan naturalizm tamoyillarini** birlashtirgan "Baxtiqaro Kerri" (1973), "Amerika fojiasi" (1976) va "Jenni Gerxardt" (1982) kabi romanlari o'zbek tiliga nashr qilindi.

Teodor Drayzer ko'pgina adiblar singari talaygina asarlar yozmadi. Uchtagina romanining o'zi jahon adabiyotini bazab turdi.

¹⁹ Theodore Dreiser. Essays and Articles. Moscow, 1951, pages 13-14.

II BOB. “MARTIN IDEN” VA “AMERIKA FOJEASI” ASARLARIDA ROMANTIZM XUSUSIYATLARI

II.1 “Martin Iden” asarining yaratilishi va bosh qahramon tasviri

“Martin Iden” romani o’zgacha tarixiy sharoitda yaratilgan. Dunyo katta o’zgarishlar to’lqini arafasida turgan paytda bu asar dunyoda kelgan. Mana shunday bir sharoitda Jek London “Martin Iden“ ustida ishni boshladi. Uilyam Geysmar, mashhur amerikalik tanqidchi, masalan, “Martin Iden”ni “o’zi o’qigan asarlarning eng yaxshisi” deb aytadi.

“Martin Iden” xarakteriga ko’ra antiburjuaz asardir. Asarda muallif burjua jamiyatini o’rganish asosidagi fikrlariga nuqta qo’yadi va burjua jamiyatini o’sha davrdagi barcha kamchiliklarga aybdor qiladi. Ulkan mahorat bilan romanda Amerika burjuaziyasining nuqsonli tomonlari, reaksiya kuchlari, betartib siyosati hamda talantlarni toptab, poymol qilishi, insondagi eng nozik va sof tuyg’ularni yakson qilishi, hamma narsani, hattoki, his-tuyg’ularni ham pul bilan o’lchashi yaqqol ko’rsatilgan²⁰.

Jek Londonning yangi romani “Martin Iden” nashrga chiqdi. Garchi, uning bu asari ham boshqalari singari yuksak e’tirofga loyiq bo’lsa-da, ko’pchilik tanqidchilar unga loy chaplash bilan ovora” – deydi mashhur AQSH lik adabiyotshunos Ingmar Stoun²¹.

Yana bir mashhur yozuvchi Epton Sinkler roman haqida shunday deydi: “Iden”ni Amerikada yaxshi bilishmaydi, uni hali ko’pchilik o’qib chiqmagan...”

Roman chop etilgandan so’ng ko’pchilik uni tanqid qilishga kirishdi, Jek Londonga esa bu yomon ta’sir o’tkazardi. F. Foner bu haqda shunday deydi: “Londonni shu hayratga solar ediki, romanni tanqidchilar bilan bir qatorda, sotsialistlar ham unda individualizm g’oyalari jo bo’lganligi sababli qoralashar edi.”

Boylar, burjuaziyaning yorqin misoli asarda – Morzlar oilasi. Mister Morz – shuhrat qozongan korchalon, ishbilarmon, yuridik firmaning rahbari –

²⁰ Быков В. Романы Джека Лондона. – М., 1966. -19 с.

²¹ Быков В.М. Джек Лондон. М. 1964.

o'zini juda aqlli va bilimli kishi deb hisoblaydi. Biroq aslida u elementar fan qonuniyatlarini bilmaydi. Mister Morz o'ziga haddan tashqari qattiq ishongan, o'zining hammaga kerakligini ko'z-ko'z qilib yuradigan kishi, Mister Morz kambag'allarga jirkanch mavjudotlar sifatida qaraydi. Uning nazdida ular hech qachon o'zidek ko'p pul topish qobiliyatiga ega emas.

Martin Iden Morzlar uchun jirkanch bir dengizchi, zaharlangan o'y-xayollarga berilgan bir "sotsialist". U hech ham bo'lajak kuyovi oldiga qo'yadigan talablarga javob bermaydi, shuning uchun ham Morz Martin Idenni ularning uylariga mehmonga kelishini to'xtatadi va uning Ruf bilan unashtirishini bekor qiladi. Morzning rafiqasi ham xuddi o'zidek – doimo pul ko'ziga ko'rinadigan ayyor ayol. Ruf onasiga Martinga bo'lgan bo'lgan sevgisi haqida aytganda Missis Morz Martin ularga mos emasligini aytadi. Missis Morz Rufga uning tanloviga ta'sir ko'rsatishni aslo xohlamasligini, lekin nima bo'lgan taqdirda ham Ruf ularning qizi ekanligini va ular Rufning Martinga turmushga chiqishiga yo'l qo'ymasligini va shunday qarab turolmasligini aytadi. Missis Morz Martinni qo'polligi va tarbiyasizligi Rufning nozikligi va dilbarligi oldida juda xunuk ko'rinishini aytadi. Martin Ruf uchun yaxshi hayotni ta'minlab ham berolmaydi deb hisoblaydi Missis Morz. Uning fikricha ular boylik ortidan quvmaydilar, ammo er degan xotiniga qulaylik va to'kin-sochinlikni ta'minlab berishi kerak deb ta'kidlaydi Missis Morz. Ruf ularning yakka-yu yagona qizi va u albatta o'ziga to'q kishiga turmushga chiqishi kerak deb hisoblaydi. Martin esa zoti-zurriyodi noma'lum, qallob, qo'yboqar, kir yuvuvchi, matrosga turmushga chiqishi aslo mumkin emas deydi u.

Morzlar oilasi bilan sudya Blount, korchalon Batler, Charlz Xengud va boshqa o'zlariga o'xshagan burjualar yaqin munosabatda. Ular uchun hayotda faqat bir maqsad bor – pul, boylik to'plash edi.

Martin boyigandan so'ng, bular hammasining unga nisbatan munosabati keskin o'zgaradi. Morzlar oilasi, Blount va boshqalar yoppasiga uning atrofida girdikapalak bo'lishadi. Mana shu "tarbiya kodeksi" asosida Ruf ham ulg'aygan. Muallif shunday deydi: "Tabiatiga ko'ra Ruf ham konservativ

tarbiya topgan edi. Tarbiya esa uni yashagan, ulg'aygan muhitiga xos ravishda fikrlashga undar edi.” Ruf romanda katta o'rin egallaydi va uning obrazi to'laligicha ochib berilgan.

Ruf va uning oilasi uchun Martin asar boshida “bir qiziqarli, yovvoyi odam edi ” .Ruf Martinda qandaydir g'ayritabiiylik, yovvoyilik va kuchni ko'rardi. Unga Martinning kuchi, energiyaga to'laligi yoqardi, lekin uning qo'llarining qadoqligi seskantirar, muomalasi qo'polligi qo'rqitar edi. Boshida uni sevib qolishiga hecham ishona olmasdi, biroq keyinchalik o'zi bilmagan holda unga mehr uyg'ondi. Birinchi marta Martinga bo'lgan mehrini dengizga sayohatga birga chiqqanlarida sezdi: Ruf birdaniga uning yelkasiga suyangisi keldi, unda suyanch qidirdi²².

Universitetda ta'lim olgan va san'at fanlari bakalavri darajasiga ega bo'lsa-da, Ruf aqliy salohiyati jihatidan Martindan ancha quyi turardi.

“Unda hech qanday o'ziga xos qobiliyat yo'q edi, u har qanday ijodiy yondashuvdan holi edi, –deydi– London, Ruf faqat qolganlarning fikrlarini yodlab olib xuddi to'tiqushdek takrorlar edi.”

Ruf Martinning talanti va boshqalarga o'xshamasligini baholashga qodir emas edi. Uning fikrlari Rufga butunlay yot edi, garchi u san'at fanlari bakalavri bo'lsa ham... “Ruth does not understand his feelings, his views, and thought that Martin could not explain them thoroughly...”

Agar Iden Rufga ko'nglini ochsa, yuragining tub-tubidagi tilaklarini, xohishlarini aytsa, Ruf o'zini boshqacha tutardi. U Martindan o'z fikrlarini yashirardi, o'zini go'ldek tutardi va mug'ombirlik qilardi.

“She was not sincere with him, and she does not know whether she can be in the future...” Rufning maqsadi Martinni o'ziga ideal deb bilgan otasi va Mister Betlarga o'xshash odamga aylantirish edi. Ruf Martinning adabiy talantiga va uning yozuvchi bo'la olishiga mutlaqo ishonmasdi.

“–Do not you believe me – asked Martin her.

²² J.London “Martin Eden”, London, Project-Gutenberg book, 2010 y.p34

Not you, –said her, – but you talent of writing and that you can be the real writer.” Idenni tushunmay, uning siyosiy dunyoqarashlarini anglamay, u ham otasi, Mister Morz kabi Martinni radikal deb hisoblardi va uning fikrlari unga shubhali tuyulardi.

“- Do you also think that my ideas are too radical – asked Martin.

- To my mind, they are very suspicious, – said she.”²³

Ruf Martinga salbiy ta’sir o’tkazadi. U Martinga o’zining tor fikrli, burjua g’oyalarini singdirishga urinadi va uning har qanday fikrini qoralaydi.

Rufning o’zining oilasiga xos an’analarga qarab tutishi Martinni gazetalarda “sotsialist” deb qoralashganda yaqqol namoyon bo’ladi. Ana shu nuqtada Ruf Martin bilan munosabatlarini to’xtatadi. O’zini xudbinlarcha tutib, undan voz kechadi. Oila a’zolarining undashlari muhabbatdan ustun keladi. Uni darbadar va nopok hayot kechirganlikda ayblab, uning ota-onasi haq bo’lganligini va ular bir-birlariga aslo to’g’ri kelmasligini aytadi.

Idenni u uchun o’gir bir paytda tashlab ketadi va u mashhur va boy bo’lgandan so’ng uning yoniga qaytadi.

“No one knows that I am here” said Ruth to Martin coming close to him.”

Martin uyiga kuzatib qo’yadi va yo’lda uning akasi Normanni uchratishadi, Norman Martinga bepisandlik bilan qaraydi.

Ruf asarda oilasining ta’siriga berilgan, ularning “chizgan chizig’idan chiqmaydigan”, yuzsiz, boylikka o’ch kishilar timsoli hisoblanadi.

Boylikka o’ch kishilar romanda nafaqat yuqori tabaqa vakillari – Morzlar, Blount, Betler va boshqalar tomonidan ochib berilgan, balkim ulardan ancha quyi pog’onada turuvchi shaxslar orqali ham ifodalangan. Ular – Martinning pochchalari Higginbotam va Shmidt. Ularning har ikkalasi ham kapitalistik jamiyatning jirkanch mavjudotlari. Ayniqsa, Bernard Higginbotam juda jirkanch va pastkash odam, u juda ham xasis va baxil.

²³ Лондон Ж. Мартин Иден. – Т., Ф.Фулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, (Кодир Мирмухаммедов таржимаси) 1968. – 432 б.

Jek London asarlarining ba'zilarida o'sha davr individualizm nazariyasiga qarshi fikrlar bayon etiladi. Uning "Martin Iden" romani ma'lum darajada avtobiografik asar. London Shimoliy dengiz sayoqati davrida ushbu asarni yozdi. U birinchi marta 1905-yil 25-noyabrda opasi Elizaga yozgan xatida yangi roman yozayotganiga sha'ma qiladi: "Har kuni ishlayman. Yangi romanning 95 ming so'zini yozdim. Bu mening eng uzun asarim bo'ladi."

Uch oydan so'ng 1908-yilning fevralida yozuvchi o'zining do'sti Klaudsli Jonsga: "Yaqinda men o'zimning 145 ming so'zdan iborat romanimni tugatdim. U Amerika hukmron sinfiga har tomonlama zarba beruvchi asar bo'ldi. Men bir necha yil oldin faylasuf Nitsshening insonning buyukligi g'oyasiga tayanib, "Dengiz bo'risi" asarini yozgan edim. Ko'plar yozdilar, lekin inson yuksakligi falsafasiga qarshi fikrlarimni ilg'ay olmadilar. Endi esa "Martin Iden"da ham xuddi shunday fikrlarni bayon etdim. Bu roman menga do'st orttirmaydi" deb yozadi.

Roman dastlab "Pacific monthly" jurnalida chop etildi. 1909-yilning 1-sentabrida esa alohida asar bo'lib nashrdan chiqdi²⁴.

"Martin Iden"- Jek Londonning yigirma birinchi asari. Bu davrda u ommaga tanilgan yozuvchi, "Bo'ri o'g'li", "Hayotga muhabbat" kabi hikoyalar to'plami muallifi, "Dengiz bo'risi", "Temir tovon" kabi romanlar yaratuvchisi sifatida kitobxonlar ommasiga yaxshi tanish edi. Faqatgina "Martin Iden" asari juda tez kitobxonlarning diqqatini oldi²⁵.

Romandagi voqealar o'zaro bog'liq ravishda takomillashib boradi. Martinning Rufga bo'lgan sevgisi, ularning shaxsiy munosabatlari, Martinning bilim olish uchun tinimsiz shug'ullanishi, uning zodagonlar jamiyatida o'z o'rnini topishi, bu jamiyat uning yozuvchilik qobiliyatini tan olishi uchun kurashi- asarning asl mohiyatini tashkil etadi.

Martin Iden kunida 19 soatlab ishlab, katta ishtiyoq bilan ta'lim oladi va o'zining betakror qobiliyati sababli taniladi. Iden asarning boshida burjua

²⁴ Быков В. Романы Джека Лондона. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – М., 1966. -19 с.

²⁵ London, Charmian "The Book of Jack London", Volume II, Kessinger, 2009 y. p55

jamiyatiga nisbatan soxta tasavvurlarga ega edi, biroq Morzlar dunyosiga kirgandan so'ng Martin "universitetda tahsil olish va haqiqiy ta'lim olish bir narsa emasligini", yuzaki go'zallik, bekam-u ko'stlik ostida ta'magirlik, qalloblik va ochko'zlik yotishini tushunib yetdi.

London behudaga "Martin Iden" ni "burjuaziyaga ikkinchi zarba" deb atamaydi ("Temir tovon"dan so'ng). Haqiqatdan ham romanda muallifning va bosh qahramon Martin Idenning amerikalik yirik mulkdorlarga nafrati poyonsiz (Qahramonlardan ishi gullab-yashnayotgan Morzlar, Batler, sudya Blant, qo'pol savdogarlar, Xiggenbotam va Shmidt kabi kichik chakana savdogarlar). Bu obrazlar orqali inson qadr-qimmatini uning chek daftarchasidagi pul miqdori va uning pul topa olish qobiliyati bilan belgilanadi²⁶.

Iden jondan ortiq sevgan Ruf ham shu burjua jamiyati muhitining qarashlariga amal qiladi. O'zicha Martinni sevgan Ruf uning intilishlarini tushunmaydi, Rufni Martinning ichki ozod ruhi qo'rqitadi, burjua jamiyatiga nafrati esa dahshatga soladi. Ruf Martinning iste'dodiga toki burjua jamiyati uni tan olmasa, yoxud asarlari uchun yetarlicha pul topa olmasa ishonmaydi.

Martin har turli kishilar bilan tanishdi, hatto eng yuksak orzularidan biri yozuvchi bo'lishga ham erishdi, hisobsiz pullarning egasi bo'ldi. Hattoki Ruf xonimning ham sevgisini qozondi. Lekin oxir-oqibatda tushundiki, Martin intilgan hayot zerikarli, soxta, yolg'on va tilyog'lamalikdan o'zga narsa emas ekan! Mashhurlikka erishib, peshanasi yarqiragan paytda esa, hamma uni mehmonga chaqirar, unga iltifot ko'rsatar edilar. Vaholanki, o'sha paytlarda bunday takliflar unga juda qo'l kelardi, chunki u kundan kunga ochlikdan ozib-to'zib, rangi sarg'ayib, madori quriy boshlagan edi... U haftalab och o'tirganida uni ovqatga taklif qilish hech kimning xayoliga ham kelmasdi, endi bo'lsa yuz ming kishi yesa to'yadigan ovqatga yetadigan puli bo'lganda, boz ustiga hech ishtahasi yo'q paytda chor atrofdan uni ziyofatga taklif qila boshlashdi. Bir narsa aniq edi: Morzlarga Martin Idenning o'zining ham, ijodining ham hech qanday ahamiyati yo'q edi. Ular Martinning shuhrati, nomi tufayli, ehtimolki uning

²⁶ Быков В. Романы Джека Лондона. . М., 1966. -19 с.

joriy hisobidagi bankda yotgan 100000\$ puli tufayli u bilan yaqin munosabatda bo'lishga intilishar va shuning uchun yakka-yu yagona qizi Ruf xonimni uning huzuriga bir o'zini yuborishadi. Lekin Martin o'ziga va insoniyatga nima bo'layotganini tushunmayotgan edi. Nahotki u shuncha qiynalib, harakat qilib, tunlarni bedor o'tkazib erishgani shunday bema'ni, bemaza hayot tarzi bo'lsa? Bunday yolg'on va razolatli hayotda hech qanday narsa Martinni saqlab qololmasligini asta-sekin tushuna boshladi. Shuncha intilgani shumidi hali? Martin shularni o'ylab o'yiga yetolmas edi. Hayotda hech qanday reallik va adolat yo'qligini tushungan, tinmay harakat qilib erishgan narsasi hech narsa bo'lib chiqdi. Bunday yashashdan ma'no topa olmagan Martin Iden hamma narsadan sovidi, hattoki Ruf xonimdan ham ko'ngli qoldi. Oliy ma'lumotli, zodagon oila vakillari eng razil, past va hech narsaga aqli yetmaydigan omi xalq ekanligini angladi. U osudalikni istayotgandi... Bu unga osonlikcha erishiladigan narsadek tuyuldi. Kema safariga chiqqan Martin Iden o'zini tun qo'ynida suvga tashladi. Suvda suzarkan, bu hayot bevafo degan gapni takrorlardi... Bir ozdan so'ng u butun o'y xayollarini tarqatib yuborib, osudalik qo'yniga g'arq bo'ldi. Suvning tubiga yetgan Martin endi suvning yuziga chiqish behuda ekanligini anglab, suv tubida abadiy qolishni ixtiyor etdi.

Fojialardagi qaysi bir qahramonni olmang, ular qalbida yaxshilik bilan bir qatorda, qisman bo'lsa-da kamchiliklar ham bor. Hayotda mutloq ideal va mutloq yomon odamlar bo'lmaganidek, buyuk dramaturg ham personajlarni mutloq yomon yoki yaxshi qilib yaratmaydi. Har bir ijobiy qahramonga ham kamchiliklar, xatoliklar va adashishlar xos. Eng jinoyatkor, yomon qilmishli odamlar ham qandaydir ijobiy tomonlardan mahrum emaslar.

II.2. “Amerika fojiasi” romani XX asr Amerika orzusining xavf-xatarlarini ochib beruvchi shoh asar

“Amerika fojiasi” nafaqat Amerika adabiyoti balki jahon adabiyotining eng sara asarlaridan biri . Ushbu romanda boylik va kambag'allik orasidagi kuchli tafovutni aks ettiruvchi Amerikagacha yo'l ko'rsatib berilgan.

Ushbu roman asosini tashkil etuvchi syujet muallifni uning adabiy faoliyatining boshlaridanoq qiziqtirgan edi. “Amerika fojiasi” 5 yillar chamasi vaqtda ya'ni 1920-1925-yillar oralig'ida yozib tugatilgan.

Muallifning rafiqasi Elen Drayzerning eslashicha, yozuvchining “Amerika fojiasi” deb sarlavha qo'yilgan qo'l yozmasida asarda tasvirlangan hodisalarga o'xshash 15 xil voqealar tavsifi yozilgan edi. Ularning barchasi ham amerikalik yigitlarning boyib ketish ilinjida o'ziga to'q oilaning qiziga uylanishni maqsad qilib olganligi ifodalangan. Ushbu maqsadlari yo'lida ular har narsaga, hattoki jinoyatga ham tayyor edilar. Shunday voqealar tasvirlangan maqolalarning barchasi bilan tanishib chiqqan. T. Drayzer o'z romanining asosiga 1906-yil sodir bo'lgan, Chestr Jillett ismli kimsaning o'z sevgilisi Greys Braunning joniga qasd qilganligi haqidagi voqeani kiritdi. Ushbu jinoyat shunchalik ovoza bo'ldiki, hatto “Amerika fojiasi” romanida o'sha ish yuzasidan gazetalarda chop etilgan fakt va hujjatlardan foydalanildi. T. Drayzer o'sha davrda urf bo'lgan, Amerikada keng tarqalgan romanlar, ya'ni kambag'al yigitning boy qizga uylanib boyib ketishi va shu bilan amerikalik yoshlarga taqdirni osongina o'zgartirish haqidagi uydirmalarga ishonishga olib keluvchi asarlarga qarshi edi.

“Amerika fojiasi” romanida ham yozuvchi shunday yigit obrazini, ya'ni boylik ketidan quvib, yo'lida uchragan narsani urib keta oladigan amerikalikni yaratdi, ammo shu bilan birga ushbu yo'lning naqadar chigalligini ko'rsata oldi.

“Amerika fojiasi” romani o'sha davr Amerika hayotining yaqqol tasviri edi. Amerika hayotini har tomonlama qamrab olishga intilish yozuvchining 1927-yil 20 –aprelda Jek Uilsga yozgan maktubida o'z aksini topgan: “Men ushbu voqea haqida uzoq o'yladim, menga u nafaqat milliy hayotimizning har

bir nuqtasi siyosat, jamiyat, din, biznesni ko'rsatibgina qolmay u Amerikada tug'ilib o'sgan oddiy amerikaliklarning hayot tarixiga o'xshaydi. Bu ayniqsa hayot shaxsni o'zgartira olishi, shaxs esa hayot qiyinchiliklariga bas kela olmaganligi haqidagi ayni haqiqatdir..."²⁷

Muallif ushbu romanda jamiyatning oddiy amerikaliklarning hayotiga mas'uliyatsizligini ko'rsatib bera olgan. Pulga, boylikka xirs amerikalik yoshlar Roberta Uolden va Klayd Griffithsning fojiaiy halokatiga sabab bo'ldi. Klayd millionlab amerikaliklarning tipik vakili. U Amerika burjua jamiyati qabohatlari qurboni bo'lgan son-sanoqsiz yoshlarning vakilidir. Amerika hamma uchun barobar imkoniyatlar mavjud mamlakat degan safsatani fosh etdi.²⁸

Haqiqatda kun kechirish qiyinlashib ketmoqda, qayg'uli hayot Amerika yoshlarini baxtsizlikka fojiali o'linga duchor qilmoqda edi. Klayd voqeasi burjua siyosatdonlariga bir o'yin hisoblanadi. Gunohi aniqlanmasdan turib, Klaydning taqdiri hal etiladi. Klaydning boy qarindoshlari uni o'limdan olib qolishlari mumkin edi. Lekin ular bu janjalli ishga aralashishdan, obro'lariga putur yetib, shaxsiy ishlariga zarar kelishidan qo'rqadilar va o'zlarini chetga oladilar. Oqibatda sud uni o'lim jazosiga hukm qiladi. Klayd burjua tartiblari, din va o'sha jamiyat illatlari, urf-odatlar qurboni bo'ladi.

Drayzer ushbu asar orqali Amerikadagi fojiaiylikni ko'rsatib bera oladi. "Amerika fojiasi" voqelikni keng qamrab olishi, ko'rsatilgan g'oya va tanqidiy fikrning chuqurligi, badiiy mahoratning yuksakligi bilan jahon progressiv adabiyotining eng sara asarlari qatoridan joy oldi.

Drayzerning "Amerika fojiasi" (1925) asari birinchi jahon urushidan so'ng yozilgan monumental ikki tomli romandir.

"Amerika fojiasi" – ushbu asar Teodor Drayzerni eng mashhurlik cho'qqisiga chiqargan asari desak adashmaymiz. Ushbu asar va uning qahramonlarining juda samimiy qilib talqin qilinganligi uning dunyo darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'la oladi. Amerikalik naturalist yozuvchi Teodor

²⁷ Артаманов С.Д. "История зарубежной литературы XVII-XIX в.в". Москва, 1978 стр. 99.

²⁸ Zaslavskiy Ya.N. "Teodor Drayzer". Moskva, 1977. p. 88.

Drayzerning “Amerika fojiasi” romanida bu mamlakat hayotining manzaralari chiziladi. Amerikaga xos tipik hodisa sifatida analiz qilinadi. Buzuq ijtimoiy tuzum sharoitida yoshlarning yaxshi yashashni orzu qilib, pul ketidan quvib, elektr kursiga o’tirishlariga majbur bo’lishlari haqqoniy bo’yoqlarda aks ettirilgan.

Ushbu asar 1925-yilda yozilgan bo’lib, asarning bosh personaji burjua meshchan oilasidan chiqqan bola-Klayd Griffitsdir. Roman voqealari Qo’shma Shtatlarda yuz berganligi aks ettirilgan. Klayd o’sha muhit ta’sirida o’sadi. Klayd burjua jamiyatiga xos yuzsizlik, boyish yo’lida har qanday vositalardan foydalanish kabi yaramas illatlarni o’zlashtira boshlaydi. U o’z maqsadlariga erishish yo’lida dastlabki qadam, deb mahalliy mehmonxonani hisoblaydi va u yerda o’z mijozlaridan xayr-sadaqalarga ko’z tikuvchi, manfaat yuzasidan ish tutuvchi egoistga aylanadi. Tartibsiz turmush kechirish maishat va ichkilikka olib boradi. Romanda Klayd Griffitsda tug’ilgan egoism Amerika burjua jamiyati va uning zo’ravonlikka asoslangan vahshiy qonun-qoidalarining oqibati ekani ko’rsatildi. Ushbu asarda insonlarning hayotda o’z yo’lini topa olishi va kelajakda ham farzandlarning hayot yo’lini topishga yordam beradigan qaysidir ma’noda insonlarni o’z ma’suliyatini his qilishga undaydigan tarbiyaviy ahamiyatli tomonlar juda ko’p. Buni albatta Klaydning amakisi va uquvsiz otasi misolida ko’rishimiz mumkin.

Bu asarda biz Klaydni aybdor deb topishimiz noo’rin albatta chunki u ham yaxshi yashash uchun harakat qilgan. Burjua dunyosining ahloqi, boylikka sig’inish kishining tabiiy his tuyg’ularini barbod etadi, bu narsa oddiy amerikalik yigit Klayd shaxsiyatida ochiq ko’rinadi. Asar qahramoni Klayd Griffits-zaif irodaliligi va o’z xatti-harakatlarini oxirigacha tushunib yetmagan yigitcha. U qashshoq sayyoh yevangelistlar oilasida voyaga yetadi, biroq boylik va go’zal ayollar muhabbatiga erishishni orzu qiladi. Boy amakisi uni o’z fabrikasiga ishga oladi. U ko’ngil qo’ygan qiz Roberta Olden homilador bo’lib qolganida, Klaydni uylanishga undaydi. Shu orada Klayd zodagon oila qizi Sondra Finchlini sevib qoladi. Yangi muhabbati ya’ni mahbubasi uning

nazarida orzu etgan muvaffaqiyat, pul va ijtimoiy maqomni mujassamlashtiradi. Klayd oldingi sevgilisi Robertani qayiq sayriga taklif etib, uni rejasi bo'yicha cho'ktirib o'ldirmoqchi bo'ladi. Ammo so'nggi lahzalarda bu shum niyatidan qayta boshlaydi. Biroq qiz to'satdan qayiqdan suvga tushib ketadi. Suzishga mohir Klayd qizni qutqara olmaydi va qiz o'sha sohilda cho'kadi. Sud mahkamasida tik turgan Klaydning qissasini Teodor Drayzer aks yo'lda ya'ni yo'nalishda qaytarib, ayblov va himoya advokatlarning savol-javoblaridan yigit hayoti va ongiga singib o'tishi uchun o'ta mohirlikdan foydalanadi.²⁹

Ijodkor hayotdan saralab olgan muhim voqea va hodisalarni o'zining estetik qarashlarida aks ettira olgan odobli, o'ta diniy muhitdagi oilada tarbiya topgan Klayd qay tariqa odam o'ldirishga jur'at etgani, qanchalik tuban tushganini tahlil etadi. Klayd o'zi kambag'allikdan boylik va shuhrat cho'qqilarida meteordek ko'tarilganida o'z tajribasida sinab ko'rmoqchi bo'lgan Amerika orzusini astarini tasvirlaydi. Kambag'al ammo betinim mehnat qiluvchi, ishchi bo'lgan Klayd taqdirida halok bo'lish bitilgan edi. Darhaqiqat, u kiborlar oilasiga kirib, uni zodagon qiz Sondra Finchli mashhur qiladi, biroq Klayd o'zi sevgan ayol faqat uning puli va shon-shuhratiga uchishini idrok etadi. Mahbubasining sevisiga qodir emasligi dil xastaligi, umuman inson tabiatiga ishonch yo'qotishiga olib keladi. Shuningdek sinfiy sovuqlikdan ham azob chekadi: ishchilar sinfidan yuqoriga ko'tarilgan Klayd, o'zi erishish uchun o'ta ko'p mehnat qilgan boylar sinfining moddiy qadriyatlarini rad etadi. U elektr kursiga o'tirib o'zini kamchiligi tufayli halok bo'ladi.

O'z paytining ko'plab yetuk romanlari singari "Amerika fojiasi" ham omadsizlik qissasi. Katta boylik orasida umidsizlikni kashf etishi bilan keyinchalik Teodor Drayzer uchun keng yo'l ochadi. O'zining qiyin uslubiga qaramasdan Drayzer "Amerika fojiasi" da shak-shubhasiz qudratini namoyon etadi. Aniq tafsilotlar muqarrarligining mudhish qissasini tug'diradi. Bu roman Amerikacha muvaffaqiyat afsonasi aynishining shavqatsiz ta'siri bo'lishi bilan birga urbanizatsiya, modernizatsiya va yakkalanishning salbiy ko'rinishlarini

²⁹ Theodor Dreiser "An American Tragedy". Moscow, 1951. p78-79

fosh etuvchi umumlashma qissadir. Unda yo'qsillar romantik va xavfli fantaziyalar og'ushida sargardondir.

Amerika tahliliy jurnalistikasining ulkan an'anasi aynan shu davrdan boshlanib "Maklures" va "Kollier" kabi jurnallari Ida I. Tarbelning "Standart Oyl kompaniyasining tarixi" (1904), Linkoln Steffensning "Shahar sharmandaligi" (1904) va o'zga keskin tanqidiy oshkora fosh etuvchi asarlarini nashr etadilar.

Fosh etuvchi romanlar og'ir mehnat sharoitlari va jabr-zulmni tasvirlash uchun ko'zga tashlanuvchi jurnalistik vositalardan foydalanadi. Populist Frenk Norrisning "Sprut" (1901) asari katta temir yo'l kompaniyalarini tasvirlasa, sotsialist Epton Sinklarning "Jungli" (1906) asari Chikagoning qassobxonalaridagi iflosliklarni fosh etadi. Jek Londonning "Temir Tovon" (1908) asari sinfiy kurash hukumatining ustun kelishini bashorat etishda Jorj Oruelning "1984" asariga yo'l ochib bergan. O'zga bir badiiy xususiyat—oddiy xarakterlar va ularning realistik portret galleriyasidir.³⁰ Unda qishloq fermerlarining xo'jaligi talab etayotgan O'rta G'arb fermerlarining qashshoqligi karaxt etuvchi darajada tasvirlangan. Asarning nomida g'arb tomon siljigan ko'plab aravalar ketidan ergashgan yer ochuvchi fotihlar muqim bo'lgan qishloqlardagi chang, serqatnov ko'chalar manzarasini chizadi. Ushbu asarlar ham "Amerika fojiasi" kabi kichik shaharchalardagi kambag'allik, yakkalik va umidsizlikni o'z holicha tasvirlab beradi.

"Amerika fojiasi" Amerikaning raqobatini, muvaffaqiyatga intiluvchi jamiyatida ko'plab kambag'al va ishchilarni qamrab oluvchi qoniqmaslik, hasad va umidsizlik tuyg'ularining in'ikosidir. Amerikaning sanoat qudrati ortishi sayin gazetalar va fotografiyalarda aks etgan boylarning hashamatli hayoti, oddiy fermerlar va ishchilarning va ularning ko'rimsiz turmushidan keskin farq qiladi. Ommaviy axborot vositalari ortib boruvchi orzu-havaslar va asossiz umidlar alangasini avj oldiradi. Zamonaviy davlatlar uchun umumiy bo'lgan mazkur muammolar fosh etuvchi, ijtimoiy muammolarni hujjatlashtiruvchi

³⁰ Azimov Q., Qayumov O. "Chet el adabiyoti tarixi". Toshkent: "O'qituvchi", 1987. 61-bet.

sinchkov qidiruv reportajlar jurnalistikasini yuzaga keltirib, ijtimoiy hodisalarni ya'ni islohotlarga turtki beradi. Ijodkor hayotdan saralab olgan muhim voqea va hodisalarni o'zining estetik qarashlarida aks ettiradi. Asar o'z yechimi bilan va shakllanishi jihatidan romantizm bilan yonma-yon turgan holda haqqoniyligi va hayot haqiqati bilan undan ajralib turadi. Asarning yetakchi prinsiplari: hayotning muhim tomonlarini muallifning yuksak ideallari darajasida ob'yektiv aks ettirib, tipik xarakterlarni ularning individual xususiyatlari bilan ifodalanib asarda badiiy fantaziyaning shartli shakllaridan foydalanib, shu bilan birga tasvirining hayotiy haqqoniyligiga rioya qilinib, shaxs va jamiyat ularning aloqadorligi va ziddiyatlari; muammolariga qiziqishning kuchli ifodalanishidir.

Teodor Drayzer Klayd tabiati timsolida ijtimoiy tanqid va realizm ruhini ilhomlantirgan. Bunda namunali demokratik shaxslarni va Klayd misolidagi jamiyatda ezilgan insonlar taqdiri, shuningdek yomonlik bilan yaxshilik o'rtasidagi farq aniq ifodalangan. Bu asarda muvaffaqiyat ostida yechimi yo'q psixologik muammolar gazak olgan. Bu muammolarning asosini shaxsiy hayot ya'ni Klayd psixologiyasiga nisbattan zug'umkor munosabatlarning ta'siri ochib berilgan. O'sha Klaydni oddiy ishchi bo'lib yurganligi va u o'zini bo'lim boshlig'i bo'lib tayinlangandan, keyin uni dabdabali va shartli urf-odatlar iskanjasida qolganligi bularning barisi inson tabiatiga ta'siri bo'lishi ochi berilgan. Balki bunda uning shuhratparastlikka intilishini namoyon etish emas, balki inson tabiati psixologiyasini o'zligini ifodalashi kerakligiga ishonch hosil qildirishdir. Klayd tabiati nafrat qilgudek emas, uning psixologiyasida ruhan ezilish, faqat xudbinlik emas balki qaysidir ma'noda intiluvchanlik ham bor deya olamiz. Uning bir jinoyati bilan uning tabiati nafratga loyiq emas. Undan tashqari o'sha davrda shunday xunrezliklar qilib jamiyat orasida baobro' bo'lgan insonlar yo'q bo'lgan deya olmaymiz.³¹

Klaydning qalb go'shalarida shunday bir hissiyotlari borki, harqalay u hamma o'ylayotgandek u qadar gunohkor emas axir. Surishtirib kelganda, ularning birortasi ham Klayd Robertadan ko'rgandek azobni ko'rmagan, ularga

³¹ Меньшова И. "Американская литература XX века". К., "Красный луч", 2000. 98-бет.

hech kim xiralik qilib “menga uylanasan”, deb turib olmagan va shunday yo’l bilan hayotini zaharlamagan. Ularni Klayddek Sondraga nisbattan, afsonaviy orzular timsoliga aylantirmagan. Ular g’arib bolaning badbaxt kulfatlari va xorliklaridan begonadirlar, butun qalbing, butun vujuding bilan boshqacha, tuzukroq hayotga intilib, nomusdan yerga kiray deb ko’chada va’z aytib duogo’ylik qilmaganlar. Bu odamlarning qaysi biri va shu jumladan, onasi ham, u boshidan kechirgan ma’naviy, jismoniy va ruhiy azoblarni bilmay turib, qanday qilib uni ayblashga haddilari sig’adi? Hatto hozir ham o’sha xayoliy kechinmalarni xayolan eslasa: “Butun a’zoyi-badani g’o’yo o’tga tushgandek qovrilib ketadi. Garchi bor dalillar unga qarshi shunaqangi qat’iy norozilik bildirar ediki, hatto bunga o’zi ham hayron bo’lib ketar edi, ba’zan.”³² Haqiqiy hayotga ro’baro’ turish muhimligi yetakchi mavzuga aylangan edi bu asarda.

T.Drayzerning “Amerika fojiasi” tomon qo’yilgan qadam qiyin izlanishlardan tashkil topgan. Bunga “Kulol qo’li” (1918) guvoh bo’la oladi. Drayzer uchun har tomonlama nooddiy asar qahramoni-Amerika burjua dunyosi tomonidan kaltaklangan inson asarda sotsiologik muammolarni ilgari surgandir. Insonni tragedik taqdirida bo’lgan ijtimoiy tabiati ochib berilgan bo’lsada, “Kulol qo’li”, “Amerika fojiasi” uchun o’ziga xos eskiz bo’la olgan. “Amerika fojiasi” ni yozish fikri Drayzerning balki ish faoliyatini boshidanoq yuzaga kelgandir, ayniqsa “Sister Carry” chop etilgandan so’ng. Drayzer o’shanda “Povessa” romanining syujeti ayrim jihatlari bilan “Amerika fojiasi” ga o’xshab ketishini aytgandi.

“Amerika fojiasi” ning asl ma’nosi-insonning xatarli holatlarda bo’lganligini ko’rsatishdadir. “Amerika fojiasi” ning qahramoni Klayd Griffits o’z tengdoshlari orasida hech narsa bilan ajralib turmaydigan inson. U shu jihatlari bilan ham Drayzerning boshqa qahramonlaridan ajralib turadi. U oddiy va har kunlik oddiy insonning g’ayritabiiy taqdiri haqida so’zlab turadi va Drayzer bu asarning oddiyligini ko’rsatib turadi.

³² Teodor Drayzer “Amerika fojiasi” 2-qism. O’zbek tili tarjiması, Toshkent, “G’afur G’ulom” nashriyoti 1976.377-bet.

Boshqa tomondan olib qaraganda, Klayd bu elektr kursidan qochib keta olardi. Uni qatl qilmasliklari ham mumkin edi. U o'z jinoyati izlarini yashira olmadi, bunga ayrim sabablar xalaqit berdi, ammo shu sabablar ham bo'lmasligi mumkin edi. Bundan tashqari u saylov oldi kompaniyasining qurboniga aylandi. Klayd Griffiths qotillik sodir qilmasdan turib qotil jinoyatchiga aylandi. Uni jamiyat qotilga aylantirdi, o'zining boyib ketish fikri bilan boy qizlarga ilakishganligi uning eng katta xatosi edi. Uning fojiasi nafaqat elektr stulda vafot etganligi, balki Amerika burjuaziyasi tomonidan zaharlanib ado qilinganligidadir. "Amerika fojiasi" da Teodor Drayzer g'oyaviy va badiiy to'liqlikka erisha olgan.

Teodor Drayzerning ushbu asari ya'ni "Amerika fojiasi" haddan ziyod shuhratparastlikka hamda materializmga qarshi bong uradi. Ushbu asarning asosiy mavzusi-Drayzerning o'z e'tiqodi va tushunchasiga ko'ra inson o'zligi va dunyo orasidagi mavjud yoki mavjud bo'lishi kerak bo'lgan uzviylikdir. Shu orqali zamonaviy dunyoning zulmiga qarshi shaxsiy noroziligini ifodalaydi. Roberta timsolida esa shimoli g'arbning ichkarisidagi ishchi xalqning umidlari, qo'rquvlari va rejalarining barbod bo'lishini moxirona ifodalagan. Adib Teodor Drayzer salmoqli xulosalar chiqarish uchun kitobxon diqqatini o'tkinchi, birinchi ko'rinishdan ahamiyatsiz tafsilotlarga jalb etmasdan, balki u, insonlarning o'zaro munosabatlarini yoritib, hayotning ikir-chikirlari va omadsizlik, qoniqishning kamyob lahzalarini ifodalagan. U bu asarini Amerika tarixidan ilhomlanib, qolaversa o'z hayotiga tanqidiy yondashib yozgan. Hamda Drayzer Klaydni avtobiografik obrazda ifodalab, uni betinim mastlik ya'ni shuhratparastlik qusurida aks ettirgan. Klaydni jinoyatga qo'l urgandan so'ng o'zining ham ruhiy azob chekkanligi va o'ldirish kabi tishga olib bo'lmaydigan mavzuni diqqat markaziga keltirgan. O'sha Klayd Roberta bilan birga bo'lishga jazm etgan. U faqatgina qilayotgan ishining yakunini o'ylamagan. Roberta misolida esa, ko'pinchalik ularda homiladorlik, ayol badani yoki turmush qurish masalalari ayol nuqtai nazaridan jasur qilib taqdim etila olingan. Roberta osuda hayoti va Klayd bilan tanishib, doim u bilan baxtli bo'lishni orzu qilgan edi.

Klaydning so'zlariga ishonib ishdan vaqtinchalik bo'shab, o'z ona qishlog'iga boradi. Va u yerda Klaydni kutib yashaydi. Uning xatlariga javob kelmay qo'yadi va u o'ziga-o'zi azob berib, kasal bo'lib qoladi. U hattoki uzoqlarga ketib, ijaraga xona olib bo'lsada farzandini bag'riga bosib yotishni orzu qiladi. Kasal holatida juda yakkalangan va umidsizlangan bechora sezadi o'zini. Shu niyatda o'zi qiyin ahvolda bo'lsada kiyimlar tikadi. Aslida u Klayd haqida umuman boshqa fikrda edi, uning nazdida Klayd shuhratparastlikka intiladigan emas, balki aksincha yaqinda u uni eri bo'ladi va o'z farzandining otasi bo'ladi deb orzu qiladi. So'ng esa uning o'y xayollari puchga chiqa boshlaydi. Yana u Kanzas Sitiga qaytadi, Klaydga tazyiq o'tkazishga majbur bo'ladi, lekin ushbu tazyiqlari uning umriga xotima yasashini bilmaydi.³³

Klayd esa bu vaqtda o'zining yangi kashf etilgan dunyosiga g'arq bo'lgan edi-yu, ammo shunday bo'lsa ham Robertadan qutilish rejalari doim unga tinchlik bermas edi. U o'zini o'ta balandparvoz, dabdabali va shartli urf-odatlar iskanjasida qolganini his etar edi. U bu narsalardan ham zavqlanar, ham qo'rqqar edi. Klayd o'z oilasi a'zolarining "nafosati" va zaifligi izhorini bila turib, har doimgidek oila a'zolarini ulug'lashga qaratilgan uslubini qo'llardi. Keyinchalik u bu an'anasini shunday qo'llaydiki, a'lo darajada niqoblanadiki, bu narsa boshqalarga ortdagi bir kuy kabi yangraydi. U ular orasida shunday obro'li ediki toki bu yaqin o'tmishda, hatto u o'zligini muxtor asdodlari davrasidan tashqarida topadi.

Ushbu "Amerika fojiasi" ni o'zining o'tkinchi orzu-havaslarida yashovchilarni, ularni ro'yobga chiqishini kutuvchilar fojiasini qayta-qayta tasvirlovchi asar deb olsa maqsadga muvofiqdir. Har bir roman o'z muhitini aks ettirib, unga qaytaradi va shu bilan birga umuminsoniy qiziqishga molik qissani yoyib boradi. Drayzerning ushbu asari mavzusi ham g'arb an'anasini bayon etuvchi asardir. Bunda Roberta go'yoki bir tuban nayrang qurboniga aylangandir. Bu asar oila hamjamiyat, o'lka, tarix va o'tmish, shuhratparastlik va muhabbat tuyg'ulari mavzuidadir. Bu ishchi qizning fojiaviy sevgi aloqasini

³³ Батулин С. "Портреты американских писателей" М., 1979. 79-бет.

bayon etuvchi asardir. Ushbu asar o'z avlodining taqdir jozibasini tasvirlovchi, boshqalardan farqli o'laroq jamiyatdagi boylar va kambag'allar haqida oshkora ta'rifdir. Klayd har qanday muvaffaqiyat va shon-shuhrat sinovlariga dosh berishga qodir emas edi. Asar juda nuqsonsiz yozilgan va batafsil tarkibli bu qissa o'z taqdirini o'zi yaratgan inson haqidagi asar bo'lib, Amerika orzusini ifodalaydi. Bosh qahramonlardan biri Klayd Griffits muvaffaqiyatining shaxsiy hayot va muvaffaqiyatli muhabbatga vayronkor ta'sirini kashf etadi. Robertaga yaqinlashish oqibatida hayoti vayron bo'lgan yosh yigit taqdiri tasvirlanadi. Drayzer asarida ko'pinchalik hayotiy tajribaning ichki tuyg'u, ehtiros ifodasini qidirgan insonni o'ziga jalb etadi.

Romanda insoniyat taqdirida ko'riluvchi gunoh va azob uqubatlarining o'zaro aloqadorligi ko'rsatilgan. Shuningdek, o'z taqdirini o'zi yaratuvchi inson mavzui bo'rttirib ko'rsatilgan; Klayd farovon turmush kechirish uchun boy qarindoshlarining panoh berishi emas, balki har bir demokrat amerikalik kabi betinim mehnatga tayanib, o'qish lozimligini anglaydi. Roman falsafiy bo'lishiga qaramasdan, shu bilan birga fojiaiy asar hamdir. O'zi qahramonligiga qaramasdan Klayd asar nihoyasida o'limga ehtimol la'natga mahkum etiladi. Tabiat naqadar go'zal bo'lishidan qat'iy nazar, u uchun yot va shavqatsiz bo'lib qoladi. Inson ruhining fojiaiy burilishi sodda tabiat og'ushida sodir bo'ladi. Roberta o'z taqdirini shaxs sifatida tan oladi va borliqning shafqat, tashqi kuchlariga qarshi chiqishga jur'at etadi. Roberta hayoti qayiqning fojiaiy ravishda vayron bo'lishidan kelib chiqib yakun topadi. Teodor Drayzer ijodining eng ajoyib tomonlaridan biri asarlaridagi oilalarga faollik yetishmasligini yorita olganligidir. Ushbu asarda ham nafaol oilalar hamda yakkalangan shaxsning azob uqubatlarini qayta-qayta tasvirlaydi.

Teodor Drayzerning "Amerika fojiasi" romani orqali biz o'tgan asrning boshlarida Amerika hayotining realistik manzaralari bilan tanishamiz. Roman Klayd Griffitsning jinoyati Amerikaga xos tipik jarayon hodisa sifatida aks ettiradi va bunday jinoyatlarning ildizlari ro'y-rost ochib berilgan.³⁴

³⁴ Teodor Drayzer "Amerika fojiasi" 2-qism. Toshkent, "G'afur G'ulom" nashriyoti 1976.377-bet

Bu kitobning shakli diqqatga sazovordir. XX asr Amerikasida shaxs xulq-atvoriga yangicha, erkinlashtiruvchi demokratik tajribaning, alalxusus jinsiy va diniy ozodlik ta'siri masalalarini ko'taradi. Bu roman o'ziga xavola etish va in'ikosga moyilligi tufayli zamonaviydir. Muallif har bir narsaga ulkan tasnif bergan. Roman shuni namoyon etadiki, adolat bu kitobda tugallanmagan matn bo'lib, ehtimol unda o'lishdan o'zga pinhoniylar javoblar yo'q. Klayd va Robertaning qisqa va fojiali hayotlari xavf-xatarga to'la edi. Ushbu asar hayot bo'la turib o'limga berilishning dahshatli manzaralari bilan tugallanadi.

II.3 “ Martin Iden” va “ Amerika fojeasi ” asarlarida romantizm xususiyatlarining ifodalanishi

Har qanday ijodiy metodning qimmatini uning chinakam hayot qonuniyatlarini ochib berish darajasi, istiqbollari ko'rsatish va mazmunni ifodalashdagi qudrati, ta'sirchanligi va go'zalligiga qarab belgilanadi. Shu sababli, yuqorida ko'rib o'tilgan ijodiy metodlarning eng yaxshi fazilatlarini hozirgi zamon estetik talablariga javob beradigan yangi yuksak ijodiy metodlarda saqlab qolinadi. Unday ijodiy metodlar qatoriga romantizm va realizm kiradi.³⁵

Romantizm asosida yaratilgan asarlarda borliqni, obrazlarni ideal obrazlar va mushohadalar asosida yaratiladi. Borliqdan yuz o'girish, ideal olamdan najot izlash, hayotni ideal orzularga moslashtirish romantizmning muhim xususiyatlardan biridir. Romantizmning tarixiy ildizlari asosan qadimgi xalq og'zaki ijodida yaratilgan mif, dostonlar, hikoyat, rivoyatlarga borib taqaladi.

Barcha ijodiy metodlar kabi ular ham muayyan ijtimoiy-tarixiy zaminda o'sha davr adabiy jarayoni taqozosiga ko'ra dunyoga keldi va rivoj topdi. Biroq, ularning ko'p asrlik taraqqiyoti va istiqboli ilg'or ekanligi realizm va romantizmni boshqa ijodiy metodlardan ajratib turadi. Ularning boshqalaridan

³⁵ Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2008. 345-bet

farqi shundaki, romantizm va realizmning adabiyotda hayotni aks ettirishdan kuzatilgan maqsadlarga ko'proq muvofiq kelishi ijod tajribasida isbotlandi.

Adabiyotda asosan ikki xil romantizm, ya'ni reaksiyona va ilor romantizm maydonga kelgan edi. Reaksiyona romantizm vakillari o'z zamonlaridan chekinib, yo qoloq o'tmishga murojaat qilardilar yoki real voqelikka aloqasi bo'lmagan mayda orzu, mavhum, uydurma, bachkana, befoyda xayollar dunyosidan mavzu olar edilar.

Ilg'or romantizmning shakllanishi ham rivoj topishi yangi peshqadam ijtimoiy kuchlarning yetilishi va ravnaqiga borliqdir. Ilg'or romantizm rivojlanishi XIX asr boshlarida Angliyada sodir bo'ldi. Bu oqim vakillari ayrim siyosiy masalalar yuzasidan tug'ilgan turli-tuman qarashlarga ega bo'lsalar-da, burjua tuzumidan va unga nisbatan tug'ilgan ta'sirdan noroziliklariga ko'ra o'zaro yaqin san'atkorlar edilar. Ilg'or romantizm asarlarida shartli ravishda tanlangan vaziyatlar tasvirlanishi real voqelikdan o'tmishga yoki sarob orzu-xayollar dunyosiga chekinishni anglatmaydi. Bu romantizm vakillari shoirning voqelikni jonli holda his etishini ijodning zarur sharti, deb hisoblar edi. Ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari yorqin ko'rsatilishi bilan bo'liq holda bu ijodiy usul ko'plab realistik tasvir unsurlari hisobiga boyidi hamda ayrim hollarda realizm bilan chatishib ketadi. Ilg'or romantizm vakillari ijobiy qahramonlar sifatida, odatda, voqelikdagi zulmdan norozi bo'lgan isyonkor shaxslarni ko'rsatar edilar. Bu romantizmning ayrim asarlarida ijobiy qahramonlar sifatida bevosita insoniyat ozodligi uchun kurashuvchi shaxslar ishtirok etadi.

Tasviriy vositalar masalasida shuni aytish lozimki, romantizm vakillari ko'pincha hayjonli, ko'tarinki, yangi, ekzotik, mubolag'ali, xayoliy idealni aks ettirishga uringanlar. Chunki romantizm mavjud hayotdan qoniqmay, undan o'zgacha, yaxshiroq, turmushni orzu qilishga tayanadi. Xuddi shu maqsadda romantizmda epitet, o'xshatish, metafora, jonlantirish, giperbola va boshqa badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanilgan.³⁶

³⁶ Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2008. 347-bet

Bu oqim vakillari asarlarida esa amerika voqeligiga yaqindan yondashgan hamda eng ilg'or zamondoshlarining ezgu his-tuyg'ulari, uylari va orzu-istaklarini ifodalagan. Amerika ilg'or romantizmida o'sha davr Amerikadagi keng demokratik doiralarda o'z-o'zini, inson qadr-qimmatini anglash tuyg'usi uyg'onishi ham, xalq ommasining saqlanib qolayotgan munosabatlardan, ya'ni hamma narsani pulga ayirboshlash, pul bilan o'lchashdan noroziligi ham o'z aksini topdi. Amerika romantizmi vakillari ozodlik, erk uchun kurashchilarni madh etishga katta e'tibor berdilar. Amerika ilg'or romantizmining o'ziga xosligi yana shunda ko'rinadiki, u tobora tanqidiy realizm uslubi bilan chatishib keta boradi. Romantizm har bir xalq, har bir shoir ijodida uziga xos va kelib chiqqan davri turlicha. G'arb tanqidiy realizmining eng yaxshi asarlarida ommaning qashshoqligi, oddiy kishilar insoniy qadr-qimmatining oyoq, osti qilinishi, jinoyatchilikning ortishi, kishilarning ma'naviy tubanlashuvi haqqoniy hamda ta'sirchan holda aks ettirildi.

Hayotga tanqidiy qarashning keskir bo'lishi va keskinlashishi natijasida adabiyotda qashshok, kambag'al kishilar obrazi ko'plab ijod etila boshlandi. Teador Drayzer va Jek London kashf qilgan obrazlar buning ishonchli dalili bo'la oladi. Bu yozuvchilar qashshoq kishilar obrazini chizar ekanlar, ularni shu holga tushirib qo'ygan ijtimoiy kamchiliklarni ro'y-rost ochib tashlaganlar.

Quyida biz tahlil qilinayotgan ikkala kitobdan romantizmning muhim xususiyatlaridan biri Reaksion xususiyatiga misollar keltiramiz.

Jek London o'zining xar bir asarini kitobxonga qiziqarli bo'ladigan mavhumlik asosida yaratadi va doimo bunda muvaffaqiyatga erishadi. "Martin Iden"da ham muallif Romantizmning reaksiion xususiyatidan mahorat bilan foydalanadi. Asar o'qilayotganda voqealar rivoji kitobxonni o'ziga jalb etadi.

"He struggled in the dark, without advice, without encouragement, and in the teeth of discouragement. Even Gertrude was beginning to look askance. At first she had tolerated with sisterly fondness what she conceived to be his foolishness; but now, out of sisterly solicitude, she grew anxious. To her it

seemed that his foolishness was becoming a madness. Martin knew this and suffered more keenly from it than from the open and nagging contempt of Bernard Higginbotham. Martin had faith in himself, but he was alone in this faith. Not even Ruth had faith. She had wanted him to devote himself to study, and, though she had not openly disapproved of his writing, she had never approved". (p.128)

Yuqoridagi parchada Martinning ichki hissiyotlari ochib berilgan. Reaksion romantizm qahramonlari o'z zamonlaridan chekinib, yo qoloq o'tmishga murojaat qiladilar yoki real voqealikka aloqasi bo'lmagan mayday orzu, mavhum, uydirma hayollar dunyosiga sho'ng'iydi. Shunday bir qiyin vaziyatda, Martin o'zini jamiyatdan ajralib qolganday his qildi. Hatto Gertrudaning hatti- harakatlari ham unga qo'pol tuyiladi. Hayotdan to'ygan, umidsiz qolgandek his qilinishi reaksiion romantizm belgisidir va bu parchada yaqqol ko'rsatilgan. Parcha oxirida " Martin had faith in himself, but he was alone in this faith " jumlasini berilgan. Bu so'zlar reaksiion romantizmning o'z zamondoshlaridan chekingan qoloq o'tmishga murojaat qiladigan belgilar orqali ifodalangan. Og'ir paytlarda yonida suyanadigan odami yo'qligi og'ir botadi va u ohir-oqibat tushkunlikka tushib qoladi.

" Gee, Ma," he exclaimed, the thought of the fifty dollars in his pocket and its intended destination troubling him considerably—the very sum his mother was seeking. "I don't know whether I can do that or not. I don't know any of the boys down there well enough for that. And they don't make any more than I do, either. I might borrow a little something, but it won't look very good." He choked and swallowed a little, for lying to his mother in this way was not easy. In fact, he had never had occasion to lie in connection with anything so trying—and so despicably. For here was fifty dollars in his pocket at the moment, with Hortense on the one hand and his mother and sister on the other, and the money would solve his mother's problem as fully as it would Hortense's, and more respectably. How terrible it was not to help her. How could he refuse her, really? Nervously he licked his lips and passed a hand over his brow, for a nervous

moisture had broken out upon his face. He felt strained and mean and incompetent under the circumstances”. (p.117)

Yuqoridagi parchada romantizmning ikkala asosiy xususiyati ham aks etgan, ammo reaksiya xususiyati, ilg'or xususiyatdan ustunroq ko'rinadi. Shuning uchun tahlilda bu parchani reaksiya tahlil bo'limida berdik. Parchada Klaydning onasini o'ylab qanchalik siqilganligi, puli yo'qligi sababli, o'zini nochor his etayotganligi to'g'risida gap borardi. Bunda tushkunlikka berilishi reaksiya romantizmga misol bo'lsa, Klaydning tomog'i qaqrashishi, azbaroyi hayajonlanganidan yuzini ter bosgani bu ilg'or xususiyat chunki, ilg'or romantizmda shoirlar voqealikni jonli hollarda his etishiga ijodning zarur sharti deb qaraydilar. Ammo Klaydning tushkun holati parchaning bosh ma'nosi hisoblanadi. Muallif Klaydning o'sha ma'lum davrdagi holatini murakkab tasvirlagan. Bir qarashda ilg'or xususiyatga ko'proq o'xshaydi, ammo Klayd o'zini boshqa insonlardan past deb hisoblaydi, ojiz, bir ish qilolmayotgan odam deb his qilib, o'zidan nafratlanib ketishi, barcha barchasi yaqqol namoyon bo'lib turgan reaksiya xususiyatidir.

Teodor Drayzerning “ Amerika Tragediyasi ” asarida reaksiya ijodiy usulga ko'plab duch kelishimiz mumkin. Quyidagi parchada ham buni ochib berishga harakat qilamiz.

Later, after that he had wandered on, essaying one small job and another, in St. Louis, Peoria, Chicago, Milwaukee— dishwashing in a restaurant, soda-clerking in a small outlying drug-store, attempting to learn to be a shoe clerk, a grocer's clerk, and what not; and being discharged and laid off and quitting because he did not like it. He had sent her ten dollars once— another time five, having, as he felt, that much to spare. After nearly a year and a half he had decided that the search must have lessened, his own part in the crime being forgotten, possibly, or by then not deemed sufficiently important to pursue—and when he was once more making a moderate living as the driver of a delivery wagon in Chicago, a job that paid him fifteen dollars a week, he resolved that he would write his mother, because now he could say that he had a decent place

and had conducted himself respectably for a long time, although not under his own name.(p159)³⁷

Bu parchada Klaydning avariya dan keyingi qiyinchilik kunlarida aks ettirilgan o'z zamondoshlaridan chekinib, restoranlarda idish-tovoq yuvishi, kichkina xarob dorixonada sodali suv sotishi, qoloq o'mishiga murojaat qilib, poyabzal magazinida va baqqollik do'konlarida hammollik qilishlari tasvirlangan. Bu parchada muallif astoydil kitobxonga bosh qahramonning og'ir kunlaridagi tushkunligini reaksiya usulida yetkazib bergan. U ko'p mayda, maxlum orzular qilardi, befoyda hayollar dunyosida yuraverib ohiri ishlari yurishmasdi. Ish berganlar u bilan yo hisob-kitob qilishar, yo bo'lmasa ishni o'zi tashlab ketardi. Nega deganda qilayotgan ishi o'ziga ma'qul kelmasdi. Shu kabi holat va xususiyatlari berilgan qismlarda reaksiya usul did bilan qo'llanilgan bo'lsada, ammo ular kitobxonga ma'yuslik berardi.

.....Meanwhile, back in New York State, lawyers and government officials involved in the murder case become embroiled in rivalries and machinations. After all, such a case could make or break reputations. Sondra Finchley's reputation, however is protected: During all the proceedings, including the trial, she is referred to as "Miss X."...

In the trial, a jury finds Clyde guilty after a holdout juror, Samuel Upham, votes to convict Clyde when other jurors threaten him. Newspapers throughout the country report the verdict. Judge Frederick Oberwaltzer then sentences Clyde to death in the electric chair at a prison in Auburn, N.Y., where he is placed in solitary confinement until the day of execution.(p420)

Teodor Drayzerning "Amerika Tragediyasi" asarining oxirgi qismida yana qayta va qayta muallif romantizmga murojaat qiladi. Romantizmning asosiy xususiyatiga masalan, yuqoridagi parchada Klaydning sud qilinish kuni keltirilgan va shu sudda barcha sudyalari uni aybdor deb topishadi, ammo Samuel Upham Klaydni aybdor emas deb ovoz beradi. Qiziqarli tomoni shundaki, Klaydning aybdor ekanligini aniq va ravshan ko'rinib turganda nega

³⁷ Theodor Dreiser. An American [Tragedy](#). Books Adelaide. 2004. Page-159

endi sudyalardan biri barchaning fikriga qarshi chiqdi. Muallif tomonidan soʻzlanayotgan butun asarning aynan shu yeri juda ham qiziqarli tus olgan. Klaydda umid paydo boʻldi ilgʻor romantizm usulidan foydalanilgan bu parcha kitobxon kayfiyatini ham oʻzgartitadi, ham diqqatini oshiradi. Ammo barcha umidlar foydasiz chiqdi, sud Klaydni aybdor deb topdi va elektr stulida qatl etdi. Barchasiga real yondosha bilish ham ilgʻor romantizm xususiyatidir. bu yoʻnalish real voqealikdan oʻtmish yoki sarob orzular dunyosiga chekinishni anglatmaydi, aksincha har biro dam qilgan aybi uchun jazo olishi kerak deb biladi.

Quyida biz tahlil qilinayotgan ikkala kitobdan Romantizmning muhim xususiyatlaridan biri **Ilgʻor xususiyatiga** misol keltiramiz.

“He had met the woman at last-the woman that he had thought little about, not being given to thinking about women, but whom he had expected, in a remote way, he would sometime meet. He had sat next to her at table. He had felt her hand in his, he had looked into her eyes and caught a vision of a beautiful spirit;-but no more beautiful than the eyes through which it shone, nor than the flesh that gave it expression and form”.(p29)

Yuqoridagi parcha Jek Londonning “Martin Iden” asaridan olingan. Unda yozuvchi ilgʻor xususiyatda unumli foydalangan. Ilgʻor xususiyatda tasviriy vositalar masalasida romantizmga koʻpincha hayajonli, koʻtarinki, yangi ekzotik, mubolagʻali, hayoliy ideallarni aks ettirishga uringanlar. Buni biz keltirilgan parchadan ohirgi qatorlarida yaqqol koʻramiz. Martin goʻzal qiz Ruff bilan stolga yonma yon oʻtirgani, uning qoʻlini siqqan paytida koʻnglida kechgan his hayajonlarga toʻla hayollarga gʻarq boʻlganligi asarga yangi ekzotik muhit berib turibti. Huddi shu xususiyatlar romantizmning ilgʻor xususiyatlariga mos keladi. Muallif hayoliy idealni aks ettirishda martin orqali oʻta nafis va latofatli shuning bilan birga kitobxonga oʻzgacha kayfiyat bagʻishlaydigan koʻtarinki soʻzlardan mukammal darajada foydalangan.

“ That’s not the point. I mean to tell you that you are a poor diagnostician. I mean to tell you that I am not suffering from the microbe of socialism. I mean to tell you that it is you who are suffering from the emasculating ravages of that

same microbe. As for me, I am an inveterate opponent of socialism just as I am an inveterate opponent of your own mongrel democracy that is nothing else than pseudo-socialism masquerading under a garb of words that will not stand the test of the dictionary”.(p338-339)³⁸

Ilg'or romantizmida asosan siyosiy qarashlari xar xil, lekin burjua tizimidan va unga nisbatan tug'ilgan ta'sirdan noroziligiga ko'ra o'zaro yaqin qarashlar ifodalanadi. Shuningdek, zulmdan norozi bo'lgan isyonkor shaxslar ko'rsatiladi, xalqning noroziligini ifodalangan, mavjud hayotdan qoniqmaslik masalari ko'tarib chiqilgan. Yuqoridagi parchada ham aynan Martinning Morsga qaratilgan kinoyali so'zlari keltirilgan. U mavjud jamiyatga qarshi chiqib, o'zining sotsializm bakteriyasini yuqtirmaganini, aksincha uning ashaddiy dushmani ekanini ta'kidlaydi. Martinning “Men reaksionerman” degan xitobi uning borliqdan qoniqmay, unga o'zgacha yaxshiroq turmushni orzu qilishga tayanishini ko'rsatgan. Bundan tashqari u barchani qoralaydi va o'zining zulmdan aziyat cheksiyotganini bildiradi. Jamiyatdagi boshqa insonlarni haqiqatni ko'qolmayotganlikda ayblaydi. Go'yoki barcha o'zini faqatgina kuchli qilib ko'rsatadi, aslida esa o'ta kuchsiz va tobeliklarini yashiradilar deydi. Shuni aytish mumkinki bu parcha romantizmning ilg'or xususiyatiga aniq namuna bo'lgan.

“The lights of the “Mariposa” were growing dim in the distance, and there he was, swimming confidently, as though it were his intention to make for the nearest land a thousand miles or so away.It was the automatic instinct to live. He ceased swimming, but the moment he felt the water rising above his mouth the hands struck out sharply with a lifting movement. The will to live, was his thought, and the thought was accompanied by a sneer. Well, he had will, - ay, will strong enough that with one last exertion it could destroy itself and cease to be”.(p430)³⁹

³⁸ Jack London. “Martin Eden”London,Project-Gutenberg book,2010.Chapter-37.Page-338-339

³⁹ Jack London. “Martin Eden”London,Project-Gutenberg book,2010.Chapter-46.Page-430

Yuqoridagi parcha Jek Londonning “Martin Iden” asaridan keltirilgan bo’lib unda asosan ikki xil xususiyat qo’llangan. Bular o’xshatish va chekinmaslik, chidamlilik xususiyatlari. Ikkala belgilar ham ilg’or romantizmga xos. Muallif asar oxirida qahramonning o’limi oldidan tirik qolishga urinishlarini tasvirlaydi va bunda o’xshatishlardan foydalanadi. Ajratib ko’rsatilgan jumlada Martinning o’zi qilolmaydigan ishga urinishi ochib berilgan. Keyingi ajratilgan qatorda esa qahramonning mustahkam irodasi tasvirlangan. Hattoki jon taslim qilayotgan bo’lsada, astoydil harakat qilishini muallif buyuk iroda egasi deb ataydi. Ilg’or romantizm vakillari,shu jumladan Jek London ham qahramonlarni, ularning sifatlarini biroz kuchaytirib ko’rsatishga urinadilar va bu ham asarda o’ziga xos ahamiyat kasb etgan. Martin Iden hayotining oxirgi soniyalaridagina taslim bo’lib suzishdan to’xtadi. Ammo uning yuragida hali ham umid bor edi.

“The boy moved restlessly from one foot to the other, keeping his eyes down, and for the most part only half singing. A tall and as yet slight figure, surmounted by an interesting head and face— white skin, dark hair—he seemed more keenly observant and decidedly more sensitive than most of the others—appeared indeed to resent and even to suffer from the position in which he found himself. Plainly pagan rather than religious, life interested him, although as yet he was not fully aware of this. All that could be truly said of him now was that there was no definite appeal in all this for him. He was too young, his mind much too responsive to phases of beauty and pleasure which had little, if anything, to do with the remote and cloudy romance which swayed the minds of his mother and father”.(p5)⁴⁰

Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” asari murakkab tuzilgan, unda romantizm xususiyatlarini har ikkala turda, ilg’or hamda reaksiya, yetarlicha ko’rsatish mumkin. Ammo, ilg’or xususiyatlar ustunlik qilgan, asardagi shunday parchalar asar boshidan boshlangan. Ya’ni Klaydning bolaligidan. Muallif bosh qahramonning oilasini qoloq, eskicha dunyoqarashli insonlar deb

⁴⁰ Theodor Dreiser. An American [Tragedy](#). Books Adelaide. 2004. Page-5

bergan va bunda tabiiyki yosh Klayd yangicha yashashga urinadi va o'z jamiyati, davri uchun muhim, kerakli shaxs bo'lib ulg'ayishga intiladi. Parchada berilgan gaplarda Klaydning hozirgi ahvolidan noroziligi va hattoki ezilayotgani aniq ko'rsatilgan. Bola garchi to'la to'kis tushunib yetmasa ham hayotda uni diniy ishlardan ko'ra dunyoga daxldor narsalar qiziqtirishini ko'rsatgan. Ilg'or romantizmga ba'zan ijobiy qahramonlar sinfida bevosita o'zining ozodligi uchun kurashuvchi shaxslar ishtirok etadi. Klayd ham shu jumladan edi. Bolada majbur qilishgan ishiga iste'dodi yo'q desa ham bo'ladi. Aynan shuning uchun ham u qochib ketadi va o'z hayotini o'zi qura boshlaydi. Voqealar rivoji davom etadi, ammo jamiyat hayotining unga ta'siri ustunlik qiladi. Biz so'z yuritayotgan ilg'or xususiyatlar esa asarning ko'pgina joylarida qayta uchraydi.

Ilg'or romantizmning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu asosan o'sha davrda ya'ni XIX asrda Amerikada keng tarqalgan xususiyat edi. Ta'rifi shundan iboratki, keng demokratik doiralarda o'z-o'zini, inson qadr qimmatini saqlanib qolayotgan munosabatlarning, ya'ni hamma narsani pulga ayirboshlash, pul bilan o'lchashning avj olib ketganligi edi. Bunday belgilar quyida berilgan parchada keltirilgan:

“But once he had reencountered Hortense, whether all this was of any import to her he could not tell. For, after all, it was her own appearance, not his, that interested her. And what was more—a trick with her—she chose to keep him waiting until nearly seven o'clock, a delay which brought about in him the deepest dejection of spirit for the time being. For supposing, after all, in the interval, she had decided that she did not care for him and did not wish to see him any more. Well, then he would have to do without her, of course. But that would prove that he was not interesting to a girl as pretty as she was, despite all the nice clothes he was now able to wear and the money he could spend. He was determined that, girl or no girl, he would not have one who was not pretty”.(p78)

Bu parchada aytib o'tilgan Gortenziya ismli go'zal qiz Klaydning sevgilisi edi. Ammo, u faqatgina pul uchun, biror bir narsa manfaatida Klayd bilan birga edi. Aslida insonlarning pulga o'ch bo'lishi barcha zamonlarda va

barcha jamiyatlarda mavjud bo'lib kelgan. Aksariyat yozuvchilar aynan XIX asrda jamiyat hayotida pulga ehtiyoj zo'raygan davrda asarlarida shunga ko'proq ahamiyat berganlar. Asarning bosh g'oyasi ham shunga yaqin, qanchalik ko'p boylik to'planmasin, baxt keltirolmaydi. Ammo, Gortenziya o'zi rejalashtirgan qing'ir niyatlariga yetolmaydi, Klayd esa oxir oqibat boshqa yurtlarga ish, boylik, baxt ilinjida jo'nab ketadi.

“And hearing the suburbanite declare quite definitely that he had nothing to do with it, that the real occupants of the car had but then run away and might yet be caught if the police wished, Clyde, who was still within earshot of what was being said, began crawling upon his hands and knees at first in the snow south, south and west, always toward some of those distant streets which, lamplit and faintly glowing, he saw to the southwest of him, and among which presently, if he were not captured, he hoped to hide—to lose himself and so escape—if the fates were only kind—the misery and the punishment and the unending dissatisfaction and disappointment which now, most definitely, it all represented to him.”(p142)

Navbatdagi keltirilgan misol tahliliga ko'ra ilg'or romantizmga xos. Chunki romantizmning ilg'or xususiyatlaridan biri bu siyosiy qarashlari xar xil, lekin burjua tizimidan va unga nisbatan tug'ilgan ta'sirdan noroziligiga ko'ra o'zaro yaqinligidir. Yuqoridagi parchada Klayd avto halokatdan so'ng qochib ketayotga

nligi va iloji boricha ko'zdan pana bo'lishga harakat qilayotganligi tasvirlangan. Klaydning mavjud tuzumga qarshi chiqib, ayblanishdan qochib shimoli-g'arb tomondagi olis ko'chalar tomonga ketishi va u uerda uni hech kim topa olmasligini o'ylashi qonunbuzarlik edi. Muallif hodisani boricha tasvirlashi, uning realizmga murojaat qilishidir. Ilg'or ijodiy usul ko'plab realistic tasviriy unsurlar hisobiga boyiydi, ayrim hollarda realism bilan chatishib ketishini esa aynan shu parchada ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adabiyotshunoslikda romantizmning ikkala xususiyati ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Asarlarni tahlil qilish

jarayonida romantizmning ilg'or hamda reaksiyon xususiyatlarning bir asarda birlashishiga guvoh bo'ldik. Asarlarni tahlil qilish bilan ulardagi tub ma'noni o'zimiz uchun kashf qildik.

\

XULOSA

Xulosa yasaydigan bo'lsak, T.Drayzerning "Amerika fojeasi" asari XX asr jahon adabiyotining eng sara va nodir ijod namunalari qatoridan allaqachon o'zining munosib o'rnini egallaganini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Chunki bu roman XX asrning I choragida qanday katta qiziqish va shov-shuv bilan kitobxon tomonidan kutib olingan hamda mutolaa qilingan bo'lsa, bugungi XXI asrda ham o'z qadr-qimmatini zarracha bo'lsa ham yo'qotgan emas.

Mashhur Amerika adibi Jek London dunyo intellektual mulkiga aylangan ko'plab durdona asarlar muallifi sifatida ma'lum va mashhurdir. U dunyo e'tirof etgan, jahon adabiy maktabining yuzaga kelishida o'ziga xos rol o'ynagan buyuk adiblardandir. U o'zining barcha asarlarida zamon va makon, ularga insoniy munosabatlar, shu jarayonda unda yuzaga keladigan his tuyg'ular birligi tarannum etiladi. Uning ijodi, hayoti va badiiy estetik hayoti bilan tanishish nafaqat ilm ahlini, shuningdek, qo'lga qalam olgan yosh so'z san'atkorlari uchun ham maktab vazifasini o'taydi.

Biz o'zimizning tadqiqotimizda ikki Amerika adibining asarlaridagi romantizm xususiyatlarini tahlil qildik va quyidagi xulosalarga keldik.

— Mazkur asarlardagi obrazlar va asar syujeti naqadar mahorat bilan yaratilganining guvohi bo'ldik.

— Romandagi voqealar rivojida Robertaning Klaydga bo'lgan munosabati va muhabbati uning taqdiridagi fojiaga olib borganini ochib berishda T. Drayzer mahorati yaqqol ko'zga tashlanganligiga guvoh bo'ldik.

— Jek London "Martin Iden" romanini o'zgacha tarixiy sharoitda yaratgan va u xarakteriga ko'ra antiburjuaz asardir. Asarda muallif burjua jamiyatini o'rganish asosidagi fikrlariga nuqta qo'yadi va burjua jamiyatini o'sha davrdagi barcha kamchiliklarga aybdor qiladi. Ulkan mahorat bilan romanda Amerika burjuaziyasining nuqsonli tomonlari, reaksiyon kuchlari, betartib siyosati hamda talantlarni toptab, poymol qilishi, insondagi eng nozik va

sof tuyg'ularni yakson qilishi, hamma narsani, hattoki, his-tuyg'ularni ham pul bilan o'lchashi yaqqol ko'rsatilganligini o'rganib oldik.

— O'rganishlar jarayonida bir qator yangiliklarga duch kelindi. Masalan, romantizm o'zi nima deganimizda uning XX asrda paydo bo'lgan o'ziga xos oqim ekanligi va bunda yozuvchilar asosan inson ozodligi uchun kurashgan qahramonlarni tasvirlaganlari hamda yangidan yangi jamiyatdagi mavjud tuzum to'grisidagi asarlar yaratganlarini ko'ramiz, shuning bilan birga uning ikki asosiy yo'nalish, ilg'or hamda reaksionga bo'linishini bilib oldik. Har ikkala asarni tahlil qilishda aynan shu ikki turga alohida e'tibor berdik. Ilgo'r xususiyat bu reaksiyon xususiyatga qaraganda bir muncha kengroq tushuncha ekanligiga guvoh bo'ldik.

— Yangilikdan voz kechib, uzoq o'tmishga murojaat qilish, insonlardan ajralib, hayoliy, uydirma, be'mani orzular dunyosiga g'arq bo'lish kabi belgilar reaksiyon xususiyatga xos bo'lsa, mavjud tuzumdan qoniqmay, undan norozilikni bildirib, insonlar fikriga qarshi chiqish, hayotga yangilik kiritish fikri bilan to'xtovsiz kurash olib borish esa ilg'or xususiyat belgilaridandir. Bu kabi belgilar Jek Londonning "Martin Iden" va T. Drayzerning "Amerika fojiasi" asarlarida ko'plab topiladi va mazkur bitiruv malakaviy ishimizda biz asardagi aynan shu ikki xususiyatni tahlil qildik.

— Yana qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, mustaqil tahlil qilish jarayonida asarlarga yanada chuqur yondashildi, undagi voqealar bir biridan keskin farq qilsada, kitobxon o'sha zamonning ruhini his qila oladi, ya'ni asarning murakkab tuzilmasi bizni unga jiddiy yondashishimizga olib keldi.

— Ayniqsa "Martin Iden"da ilg'or xususiyatga ega parchalarning soni juda ko'p ekanligini bilib oldik. Masalan, qahramon "men sotsializm bakteriyasi bilan kasallanganim yo'q, aksincha men sotsializmning ashaddiy dushmaniman. Men reaksionerman. Siz insonlar men taqqan niqobni ko'ra olmaysizlar, chunki sizlarning ongingiz ko'r bo'lib qolgan. Sizlar faqatgina o'zingizni qo'rqmas qilib ko'rsatasizlar, aslida barchamgiz qo'rqqasizlar" degan zardali gaplari aynan ilg'or xususiyat misolidir. Bu kabi misollar har ikkala xususiyat uchun bir

talay, ammo shuni ta'kidlash lozimki, biz tahlil qilgan asarlarda ilgo'r xususiyat ustunlik qilganligini bilib oldik.

— Reaksion xususiyat berilgan parchalarda esa tushkunlik kayfiyati ustun, bu esa butun bir kitobni tashkil etolmaydi albatta, ammo hayot uchun kurash mavzusi hech qachon nazardan qolmasligiga guvoh bo'ldik.

Har ikki romanda ham romantizm xususiyatlari juda yuksak mahorat bilan yaratilgan. "Martin Iden" avtobiografik xususiyatga ega. Shuning uchun ham Jek London ijodkor obrazini yaratishda ham o'z tabiati va tajribalaridan kelib chiqdi. Teodor Drayzer esa har bir siymoni o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda romantizmdan foydalanib, betakror va o'ta murakkab harakterdagi obrazlarni yaratishga muvaffaq bo'lganligi yanada tahsinga sazovor.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Артаманов С.Д. “История зарубежной литературы XVII-XIX в.в”. Москва,1978 .99с
2. Батурин С. “Портреты американских писателей М,1979. 79.
3. Богословский В. К истории реализма в США. Творчество Джека Лондона и Эптона Синклера (1900-1917) – М, 1963 .39с
4. Быков В.М. “Джек Лондон”. М. 1964.22с
5. Быков В. “Романы Джека Лондон”. М, 1966. 19с
6. Дюришин Д. “Теория сравнительного изучения литератур”. М, Прогресс, 1979. 45.
7. Лондон Ж. Мартин Иден. – Т., Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, (Кодир Мирмухаммедов таржимаси)1968. 432-бет
8. Меньшова И. “Американская литература XX века”. М,”Красный луч”, 2000. 98бет
9. Неупокоева Н. “История всемирной литературы”. М, Наука, 1976.67с
10. Николаев А. “Драйзер-великий американский писатель”. Москва,1999.59с
11. Засурский Я. Американская литература XX века. – М, Издательство Московского университета, 1984. 503с
12. Засурский Я. “Теодор Драйзер”. Москва,1977. 30-31с
13. Зверев А. Джек Лондон. М, 1975.
14. Azimov Q, Qayumov O. “Chet el adabiyoti tarixi”. Toshkent: “ O’qituvchi ”, 1987. 61-bet
15. Boynazarov F. “Jahon adabiyoti” Toshkent, 2006.124-b
16. Erkin Xudoyberdiyev. “Adabiyotshunoslikka kirish”. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2008.345-346 betlar
17. London,Charmian “The Book of Jack London”, Volume II, Kessinger, 2009.p55
18. London Jack “Martin Eden”, London, Project-Gutenberg book, 2010.p34

19. London Jack; Taylor J. Golden "A Literary history of the American West"
Fort Worth: Texas Christian University Press, 1988.p285
20. London, Joan "Jack London and His Times", New York: Doubleday, Doran
& Company. Inc, 1939. p39
21. Qayumov L. "Chet el adabiyoti tarixi" Toshkent "O'qituvchi" 1987-yil.304-
bet
22. Theodor Dreiser "An American Tragedy". Moscow,1951.78-79-bet
23. Theodor Dreiser "A book about myself".New-York,1922.p960-961
24. Theodor Dreiser.An American [Tragedy.Books](#) Adelaide.2004.159b
25. Teodor Drayzer "Amerika fojiasi" 1-qism. O'zbek tili tarjimasi, Toshkent,
"G'afur G'ulom" nashriyoti 1976.127b
26. Teodor Drayzer "Amerika fojiasi" 2-qism. Toshkent, "G'afur G'ulom"
nashriyoti 1976-yil.377-bet
27. Theodore Dreiser. Essays and Articles. Moscow,1951.13-14b
28. William James "Jack London's Works by Date of Composition". The Jack
London Online Collection, 2010.34b
29. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat milliy nashriyoti 2002-yil.369-
367-betlar
30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini
yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 10-dekabrdagi
Qarori.
31. <http://www.wikipedia.com>, the free encyclopedia.
32. <http://xroads.Virginia.edu/~Hyper/Dreiser/>.
33. [http://www.sparknotes.com/lit/Martin Eden](http://www.sparknotes.com/lit/Martin%20Eden)
34. <http://www.fb2.mbookz.ru/index.php>